

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI
NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

Tarix fakulteti

“O'zbekiston tarixi” kafedrası

MAVZU: O'ZBEKISTONDA TA'LIM TIZIMIDAGI
ISLOHATLAR (NAVOIY VILOYATI MISOLIDA)

BITIRUV MALAKAVIY ISH

Bajardi:

IV-kurs talabasi SHaropov SHerali

Ilmiy rahbar:

katta o'qituvchi U.Narzullayev

**MAVZU: O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TA'LIM TIZIMIDAGI
ISLOHATLAR: YUTUQ VA ISTIQBOLI
(NAVOIY VILOYATI MISOLIDA).**

Reja:

KIRISH.

**I BOB. O'ZBEKISTON TA'LIM TIZIMINING RIVOJLANISHI VA
TAKOMILLASHUVINING ENG MUHIM YO'NALISHLARI.**

1.1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimovning ta'lim sohasini isloh qilish to'g'risidagi g'oyalari.

1.2. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi va ta'lim islohatlarining takomillashuvi.

**II BOB. MUSTAQILLIK YILLARIDA NAVOIY VILOYATI TA'LIM
TIZIMIDAGI ISLOHATLAR.**

2.1. Mustaqillik yillarida Navoiy viloyati ta'lim tizimidagi islohatlar.

2.2. Ta'lim va fan sohasidagi xalqaro hamkorlikning takomillashtirilishi.

2.3. O'zbekiston ta'lim tizimi jahon nigohida.

XULOSA

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

KIRISH

Har bir davlat kelajagi fuqarolarining intellektual salohiyatiga, madaniyati, bunyodkorligiga tayanadi. Zero, eski ta'lim-tarbiya asosida yangi jamiyat qurib bo'lmaydi. Shu jihatdan mamlakatimiz kelajagi, shubhasiz kadrlar tayyorlash masalasiga bevosita bog'liq. Yangicha fikrlaydigan, zamonaviy bilimlarni egalagan barkamol, tashkilotchi va zukko kadrlarga ega bo'lish uchun ta'lim-tarbiya dargohlaridagi sharoitlarni birinchi navbatda sobiq sho'rolardan qolgan ta'lim-tarbiya tizimni tubdan o'zgartirish, hozirgi davr talablari darajasiga ko'tarish zarur va muhimligini hayot taqozo etmoqda.

Istiqlol yillarida mamlakatimizda ta'lim tizimini isloh qilish, milliy kadrlar tayyorlashni zamon talablari darajasiga ko'tarish masalasiga jiddiy e'tibor qaratila boshlandi. Prezident Islom Karimov hali davlatimiz mustaqilligni qo'lga kiritmagan kezlardayoq o'z nutqida "Fanga iste'dodli yoshlarning kirib kelishini ta'minlash uchun kompleks tadbirlar turkumini amalga oshirish zarur. Bu borada oliy maktabning, hatto o'rta ta'lim maktablarining faoliyatini tubdan qayta qurish kerak..." degan edi. Mustaqilligimiz me'mori o'sha vaqtlardanoq amaldagi sobiq sho'rolar ta'lim tizimi talabga mutlaqo javob bermayotgani, respublikamiz dadil oyoqqa turib olmog'i uchun unga malakali kadrlar va bunday kadrlarni tayyorlashni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan dastur zarurligini ko'p bor ta'kidlar edi¹.

Bu borada mustaqillik yillarida O'zbekistonda muayyan ishlar amalga oshirildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov ta'kidlaganidek, "tarixan O'zbekiston Respublikasida shakllangan intellektual salohiyat XXI asr bo'sag'asida o'zining rivojlanish darajasi jihatidan, innovatsion kashfiyotlar, imkoniyatlari bilan hozirgi vaqtda jahondagi ko'pgina rivojlanayotgan mamlakatlardan ilgarilab ketgan"². Ilm-fanning jamiyat ijtimoiy taraqqiyotidagi o'rnini belgilar ekan, Yurtboshimiz yuqoridagi fikrini davom

¹Karimov I. A. O'zbekiston mustaqillika erishish ostonasida. – Toshkent: O'zbekiston, 2011. B-81.

² Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. - Toshkent: O'zbekiston, 1998. - B.625.

ettirib, “har bir ilmiy yangilik, yaratilgan kashfiyot - bu yangicha fikr va dunyoqarashga turtki beradi”,³ degan edi.

O'zbekistonda mustaqillik yillarida ilm-fanning rivojlanishi uchun barcha shart-sharoitlar yaratildi. Iqtisodiy qiyinchiliklar hamda o'tish davri muammolariga qaramasdan sovet tuzumi davrida shakllangan ilm-fan infrastrukturasini bir tomondan saqlab qolindi, boshqa tomondan uning yanada rivojlanishi uchun huquqiy, ma'naviy, iqtisodiy asoslar yaratildi. Jumladan, O'zbekiston Konstitutsiyasining 42-moddasida “Har kimga ilmiy va texnikaviy ijod erkinligi, madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqi kafolatlanadi”, deyilgan⁴

Barkamol avlod ta'lim-tarbiyasi O'zbekiston davlati siyosatining ustuvor vazifasi hisoblanadi. Zotan, bugun kamol topayotgan yoshlarimiz jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-texnikaviy rivojlanishi hamda madaniyatning o'sishini ta'minlovchi asosiy kuch hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, O'zbekistonda mustaqillikning dastlabki kunlaridan jamiyatdagi yangilanish va islohotlar, iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi, davlatning jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvining asosiy bo'g'ini sifatida ta'lim tizimini isloh qilish bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Ta'lim tizimidagi islohotlar - ijtimoiy siyosiy jarayonda mustaqil fikrlaydigan, istiqbolli maqsadlarni aniqlaydigan va ularning yechimini topa oladigan, ijodkor, yuksak kasbiy madaniyatga ega bo'lgan yangi avlod kadrlarini shakllantirishga yo'naltirilgan.

Bugun rivojlanayotgan jamiyatimizga milliy va umuminsoniy qadriyatlarni mukammal egallagan, teran fikrlaydigan, tashabbuskor, jismonan va ma'nan sog'lom, barkamol yoshlar kerak. O'zining oilasiga, xalqiga va Vataniga sadoqatli, barkamol shaxslarni tarbiyalash muammolari doimo davlat va jamoatchilikning diqqat markazida bo'lib kelgan.

³ Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. - Toshkent: Ma'naviyat, 2008. - B.41.

⁴Qarang: Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – Toshkent: SHarq,- B.13, 40-41.

I BOB. O'ZBEKISTON TA'LIM TIZIMINING RIVOJLANISHI VA TAKOMILLASHUVINING ENG MUHIM YO'NALISHLARI

1.1§.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimovning ta'lim sohasini isloh qilish to'g'risidagi g'oyalari.

Prezidentimiz tomonidan ta'kidlangan umumbashariy qadriyatlarning zaminida albatta, birinchi o'rinda ta'lim-tarbiya yotadi. Insonda qachonki insonparvarlik g'oyalari ustun bo'lsa, siyosiy ongi yetuk bo'lsa, atrof-muhitga munosabati sog'lom bo'lsa, bir so'z bilan aytganda umumbashariy qadriyatlar ustun bo'lsagina bunday insonlar mavjud bo'lgan jamiyatni biz fuqarolik jamiyati deb atay olamiz. Shunday ekan, istiqbolimizni belgilaydigan ta'lim sohasini isloh qilish mamlakatimizdagi eng dolzarb muammolardan biri sifatida XX asr oxirlarida maydonga chiqdi. Aynan ana shu ta'lim sohasi kelajagimizni yaratadi.

Prezidentimizning yuksak darajadagi insonparvarlik g'oyalari bilan yo'g'rilgan qimmatli fikrlarini mazkur paragrafida ilmiy jihatdan o'rganib, tahlil qilishga harakat qilamiz.

O'zining mustaqil rivojlanish yo'liga qadam qo'ygan respublikamizning ta'lim sohasining isloh qilinishida Respublikamiz Prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimovning serqirra faoliyati bilan birga, uning nutqlari nashriy asarlarining ham ahamiyati beqiyosdir.

Barchamizga ma'lumki, respublikamiz milliy mustaqilligini qaror topshirish nihoyatda murakkab tarixiy va ijtimoiy siyosiy sharoitga to'g'ri keldi. Bu jarayonda esa mulkchilikning yagona davlat monopoliyasiga asoslangan shaklidan ko'p ukladli shakliga o'tish, shuningdek, huquqiy demokratik davlat qurish va erkin fuqarolik jamiyatini shakllantirishni, o'z fikr va dunyoqarashiga ega bo'lgan kadrlarni tarbiyalash zamon talabi edi. Shunday ekan, ushbu jarayonda ta'lim tizimini tubdan isloh qilish, dunyoning rivojlangan davlatlari bilan ushbu sohada hamkorlikni kuchaytirish eng muhim vazifalardan biri bo'lib turardi. SHuning uchun ham ta'lim sohasiga davlatimiz alohida g'amxo'rlik qildi va qilmoqda.

Zero, Prezidentimiz Islom Abdug'aniyevich Karimov ta'kidlaganlaridek, - "yosh respublikamiz mustaqilligiga rahna solishi mumkin bo'lgan ichki va tashqi salbiy omillar fuqarolarning hushyor bo'lishlari, vatanparvarlik ruhi bilan nafas olishlari, harakat, faoliyat yo'nalish belgilari hayot – mamot masalni bo'lib turibdi. Bularning barchasi nafaqat iqtisodiy, siyosiy sohada, balki ma'naviy-ma'rifiy jabhalarda, jumladan uning tarkibiy qismi bo'lgan ta'lim – tarbiya tizimida jiddiy islohatlar o'tkazishni va bunda inson shaxsi, o'z ichki salohiyotini eng ko'p darajada namoyon eta oladigan muhitni yaratishni talab etmoqda" ⁵ deydi.

Darhaqiqat, eng oliy qadriyat sifatida tan olingan inson, uning hayoti, havfsizligining ta'minlanishini masalalarining barcha – barchasi ma'rifatga borib taqaladi. Hayotda esa ma'rifatga hamisha jaholat to'siq bo'ladi. "Jaholat" so'zining o'zi ilm ma'rifatdan mahrumlik, qoloqlik, madaniyatsizlik, nodonlik, zulmat deya talqin etiladi. Dunyoni jaholat egallasa nafaqat aql, balki aqlni peshlaydigan ma'rifat, ma'naviyat, hurfikrlilik, inson ozodligi barcha- barchasi barham topadi.

Ma'rifat esa insonlarning ong – bilimini, madaniyatini oshirishga qaratilgan ta'lim tarbiyadir. Demak, jaholat bilan ma'rifat bir – biriga tamoman qarama - qarshi tushunchalardir. Hayotda ma'rifat jaholatning illatidan o'z maqsadi yo'lida foyladanmaydi. Biroq jaholat o'zining manfur niyatini amalga oshirishda ma'rifatning hislatlarini ishga soladi, o'zining g'arazli maqsadiga erishish uchun ma'rifat niqobiga kirib ish yuritadi.

Fikrlarimizni misollar orqali tushuntirishga harakat qilamiz. XXI asr vabosi "deya atalishi terorizmning tub – tubi ham jaholatga borib taqaladi ya'ni, qanchadan - qancha yoshlarning din niqobiga o'ralgan soxta aqidalarga uchishi" barchasi ma'naviyat, ma'rifatning sayozligidan kelib chiqqan, buning oqibati esa qanchadan - qancha insonlarning hayotiga zomin bo'lishi muqarrardir.

Prezidentimizning yuqori fikrlarida esa, bir so'z bilan aytganda tinchlik, xavfsizlik kabi g'oyalar ilgari surilgan. Jamiyatimizni tubdan yangilash maqsadini

⁵ Karimov I.A. Barkomol avlod orzusi. - T., O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 2000 yil. 10 bet.

ko'zlab ishlab chiqilgan bashta tamoyil hayotga tadbqiq etilayotgan hozirgi paytda ma'naviy – ma'rifiy ishlarni amalga oshirish, jamiyatda milliy g'oyani shakllantirish, buning natijasida esa, erkin shaxsni tarbiyalash davlatimiz siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan bo'lib hisoblanadi. Prezidentimiz Islom Abdug'aniyevich Karimovning "Tafakkur" jurnali bosh muharriri savollariga javoblari va bir guruh tarixchi olimlar bilan bo'lgan suhbatida, Vazirlar Mahkamasining "Ma'naviy- ma'rifiy islohatlarni yanada chuqurlashtirish va uning samaradorligini oshirish chora tadbirlari to'g'risidagi" qarorida, shuningdek, "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakati tashabbus guruhi bilan uchrashuvida so'zlagan nutqida yoshlar ongida milliy g'oyani shakllantirish, ularning ma'naviyatini yuksaltirish, xalqimizning haqiqiy tarixini tiklash kabi masalalar ilgari surilgan.

Zero, ta'lim – tarbiya tizimini sog'lom insonparvarlik yo'nalishida qayta tashkil etish, uni zamon talabalari darajasiga ko'tarish, barkamol, ma'naviy dunyosi boy, ahloqiy pok insonlarni tarbiyalash kechiktirib bo'lmaydigan davlat ahamiyatidagi vazifa bo'lib hisoblanadi.

Fikrimizning yorqin dalili sifatida esa Prezidentimizning ta'lim-tarbiya tizimini tubdan isloh qilishning davlatimiz, jamiyatimiz uchun zarur ekanligini isbotlab bergan Birinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IX sessiyasida so'zlagan nutqini keltirishimiz mumkin.

Unda farzand tarbiyasida oilaning, oilaga xos an'analar, qadriyatlar va urf-odatlarining bola tarbiyasidagi roli aniq ko'rsatib berilgan: « eng muhimi, farzandlar oilaviy hayot maktabi orqali jamiyat talabalarini angelaydi, his etadi» - deydi Prezidentimiz o'z nutqida. Bunda farzand tarbiyasida oilaning, ota – onaning, atrof-muhitning roli katta ekanligi tasdiqlangan.

Darhaqiqat, oila insonga insoniyligini anglatadigan, uning kelajagiga mustaqil zamin yaratadigan muqaddas maskan, ta'lim tarbiya o'chog'idir.

Prezidentimizning "Milliy istiqlol mafkurasi – xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir" asarida esa bu haqda shunday deyilgan: "Yurtimizdagi har bir inson uchun Vatan tushunchasi, avvalo, oiladan boshlanadi. Shu bois oila mafkura tushunchalari chambarchas bog'liqdir. Oilaning jamiyatdagi o'rni,

tarbiyaviy – ahloqiy ahamiyati, qadr-qimmatini anglab yetishdan, oilaga millat manfaati nuqtai nazaridan yondoshmasdan turib, xalqchil mafkura yarata olmaymiz."

Inson taqdiri oilaga, oila ta'lim-tarbiyasiga bevosita bog'liq bo'lsa, o'z navbatida oiladagi o'zaro munosabatlarga atrof-muhitning ta'siri o'ta muhim. Zero, maqsadimiz "kuchli davlatdan – kuchli jamiyat sari" ekan bola tarbiyasiga jamiyatning ta'sirini oshirish lozim.

Jamiyatning birinchi bo'g'ining tashkil etgan oilalarning sharoitlariga keladigan bo'lak, ular bir – birisidan tubdan farq qiladi. Shuningdek, ulardagi bolalarning hulqu atvoriga ta'sir qilish darajasi ham har xildir. Ya'ni bu ta'sir qilish ijobiy yoki salbiy ma'noda bo'lishi mumkin. Bularning barchasi esa jamiyatda xushyorlikni talab qiladi. "Xushyorlik" deganda birinchidan atrofdagilar bilan muloqatda; ikkinchidan, ularning nimalar bilan bandligi; uchinchidan, ularning hatti-harakatlari kelajak uchun ijobiyligi yoki salbiy oqibat olib keladimi? Prezidentimiz ota-onaning farzand oldidagi burchlaridan biri farzandini savodli, kasb -hunar egasi qilishdan iborat ekanligini quyidagicha ta'kidlaydigan: -- "Ota-onaning farzand oldidagi burchlari, o'zlarining oxiragini obod etuvchi qarzlari bor. Dinu diyonatli xonadon oqsoqallaridan so'rasangiz, ularni lo'nda qilib sanab beradi: yaxshi nom qo'yish, yaxshi maullim qo'liga topshirish, savodini chiqarish, ilimli, kasb - hunarli qilish, boshini ikki, uyli joyli qilish"⁶ deydi.

Albatta yuqoridagilarning barchasi ularning o'z o'rnida bo'lishi insonni barkamollik sari yetaklaydi.

«Turonzaminu sharq olamining, butun insoniyatning ilm-fani, madaniyati va ma'rifati taraqqiyotiga bebaho hissa qo'shgan buyuk mutafakkir, ilk uyg'onish davrining qomusiy allomasi bo'lib hisoblangan Abu Nasr Farobiyning uqtirishga, iloji bo'lsa oldin tarbiya, so'ngra ta'lim berilishi lozim. Uyda, oilasida yaxshi tarbiya ko'rgan bola ixlos va ishonch bilan ta'lim olishga, ilm-fanni o'rganishga intiladi.

⁶ I.A. Karimov. Barkamol avlod orzusi. T., O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 2000 yil. 10 bet.

Agar yoshlarda ma'naviy kamolot zarur bo'lsa, ularda ta'lim olishga, hayotda o'ziga munosib o'rin egallashga ishtiyoq sust bo'ladi. Ana shularni hisobga olib, Farobiy avval yoshlarni tarbiyalab, mehnat qilishga o'rgatib, kasb - hunarni bildirib, keyin ta'lim berish lozim», deb ta'kidlaydi.⁷

U bu haqda yana shunday degan: -- "Har kim ilm hikmatni desa, uni yoshligidan boshlasin, salomatligi yaxshi bo'lsin, so'zining uddasidan chiqsin, yomon shilardan saqlasin, xiyonat, makr va hiyladan uzoq bo'lsin, barcha qonun qoidalarni bilsin, bilimdan va notiq bo'lsin ilmli va dono kishilarni hurmat qilsin, ilm va aqli ilmdan mol – dunyosini ayamasin, real, moddiy narsalar to'g'risida bilimni egallasin"

Yuqoridagi fikrlardan shu narsa ma'lum bo'ladiki, inson hamisha ilm sari intilib yashashi kerak, shuningdek olgan ilmlarini hayotda kasbiy faoliyatda, yaratuvchilikda foydalanishi lozimdir. Zero, hayot harakatdan iboratdir. Inson hayotini falokatga olib keluvchi narsa bu ham bo'lsa hayotda birdan-bir inson uchun foydali faoliyat, kasbu kor bilan mashg'ul bo'lmaslikdir. Ota-onaning farzand oldidagi burchlarini mas'uliyat bilan ado etishi nafaqat farzandining kelajagi uchun, balki o'zining va jamiyatning kelajagi uchun ham ijobiy rol o'ynaydi.

Amaldagi milliy qonunchiligimiz qoidalariga asosan, ya'ni konstitutsiyamizda va oila kodeksida ota-onaning farzand oldidagi burchlari va shu bilan birga farzandning ota-ona oldidagi burchlari, ularning huquqiy tomonlari batafsil belgilab qo'yilganligini alohida ta'kidlab o'tish joizdir.

Mamlakatimiz o'z davlat mustaqilligini qo'lga kiritishi bilan barcha javhalarda bo'lgani singari ta'lim sohasida ham rivojlanish uchun qulay shart-sharoit va muhit yaratildi. Bu esa o'z navbatida jamiyatimiz buyuk kelajakka intilayotgan davlatimiz zimmasiga juda katta vazifalar va mas'uliyat yukladi. Prezidentimiz bu haqda shunday deydi: - "mana shuning uchun ham bugungi kunda biz bu masalaga jiddiy e'tibor bermoqdamiz. Shuning uchun ham bu

⁷ Abu Nasr Farobiy. Fozil odamlar shaxri. T., 1998. 130-134 betlar

maqsadga qaratilgan loyihalarimiz jamoatchiligimiz diqqat e'tibori markaziga o'tmoqda, tarbiya sohasi islohoti bugungi eng dolzarb, ertangi taqdirimizni hal qiluvchi muammolarga aylanmoqda."⁸

Shuningdek, jamiyat, xalq va davlatning siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyoti moddiy-ma'naviy kamolot, o'sish-o'zgarish va rivojlanishi bilan chambarchas bog'langan taqdirdagina behat tezlashadi va yuksak samaralar beradi. Yuksak ma'naviyat jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va boshqa muammolarini hal etishning muhim omilidir.

Darhaqiqat, ta'lim tarbiya ertangi taqdirimizni hal qiladi, ya'ni fikrlarimizni quyidagi jumalarda ifodalanishiga harakat qilamiz: dehqon bu yil ekin eksa, bu yil hosilini oladi, tarbiyachining esa, bugun bergan tarbiyasi ertaga millionlab insonlarga foyda keltirishi mumkin, yoki aksincha insoniyatning boshiga falokat keltirishi ham mumkin.

O'zbekiston Respublikasi hali davlat mustaqilligini qo'lga kiritmasdanoq Prezidentimiz kadrlar tayyorlash masalasiga alohida e'tibor qaratgan edi: -"aytish kerakki kadrlarni puxtaroq qilib tarbiyalamasdan, ularning qadriga yetmasdan, ularga ishonmasdan va qullab quvvatlamasdan, o'ylanmanki, birorbir sohada ahvolni hech qanaqa tarzda o'zgartirib bo'lmaydi" degan edi.

Yuqoridagi fikrlar bayon qilingan davrlar sobiq sho'ro zamoni bo'lib, bu tizimda esa millatni yorug'likka olib chiqaruvchi barcha harakat, g'oya va gap gapligicha yanayam aniqrog'i, barkamol avlod hiqidagi orzular orzuligicha qolib ketar edi. Bu g'oyani amalga oshirish imkoniyatining yo'qligi sababli O'zbekiston ham mafkuraviy, ham iqtisodiy jihatdan tobe edi.

Ta'lim sohasining isloh qilinishi arafasida Prezidentimiz o'tgan davr mobaynida amalga oshilgan tadbirlarni zamon talab qilayotgan darajada emasligiga alohida to'xtalib o'tgan edi.

Bu birinchidan, eski sho'rolar davridan qolgan ta'lim tarbiya tizimida mafkuraviy qarashlarning va sarqitlarning hali ham mavjudligida;

⁸ Karimov. I.A Barkamol avlod- O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. T-., 2001 9 b.

Ikkinchidan, ta'lim tarbiya va o'quv jarayonini bir biri bilan uzviy bog'lash, ya'ni uzluksiz ta'lim tarbiya tizimini tashkil qilish muammolarining o'z yechimi topolmay qolganligida;

Uchinchidan, Respublikamizdagi amaldagi ta'lim tarbiya tizimimiz bugungi zamonaviy, taraqqiy topgan demokratik davlatlar talablariga javob bera olmasligi ko'p joylarda yaqqol ko'rinyotganligida, shuningdek, mutaxassis kadrlar tayyorlash, ta'lim va bilim berish tizimi hayotimizda, jamiyatimizda bo'layotgan islohotlar, yangilanish jarayonlari talablari bilan yaqinroq bog'lanmaganligida ham ko'zga tashlanib turganiligini ilmiy jihatdan asoslab bergan.

Shuningdek, ta'lim sohasining ta'lim tarbiya jarayonining ko'tilgandek natija berishi asosan o'qituvchiga borib taqalishini, ya'ni tarbiyachining saviyasiga, u qanchalik darajada zamonaviy bilim, tajriba va ushbu bilim ko'nikmalarini o'quvchi ongiga qay darajada va qanday metodlarni qo'llash orqali yetkazib bera olishi mumkinligini jiddiy muammo ekanligini alohida ta'kidlaydi.

Darhaqiqat, ta'lim jarayonida o'qituvchi yetakchilik rolini o'ynaydi.

o'qituvchi- bu ta'lim turlari uchun davlat tomonidan belgilangan O'zbekiston uzluksiz ta'limining davlat ta'lim standartlari doirasida ta'lim tarbiya beruvchidir.

o'qituvchi- (agar ta'lim tarbiyaning san'at deb qaraydigan bo'lsak) "derejyor". Tarbiyalanuvchilar esa bu jarayonda "ijrochilardir."

Shunday ekan, ta'lim tarbiya jarayonida o'qituvchining roli katta bo'lib, "o'qituvchi va murabbiylarning hayotiy talablarini qondirish, ularni rag'batlantirish, ularni o'z ishi va kasbidan mamnun bo'lishini ta'minlash lozim"dir.

O'qituvchi va murabbiylarning hayotiy talablari qondirilmas ekan, ularni o'z kasbidan mamnun bo'lishlarini ta'minlash qiyindir, ya'ni ularning mehnati bir so'z bilan aytganda kutilgandek natija bermaydi.

Shu o'rinda O'zbekiston Respublikasining 1996 yil 26 aprel qonuni bilan fuqarolarning mehnatdagi samarali xizmati uchun, davlat, ijtimoiy va ijodiy

faoliyatlarini rag'batlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi "O'zbekiston da xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiysi", "O'zbekiston xizmat ko'rsatgan fan arbobi", "O'zbekiston xizmat ko'rsatgan sport ustози" kabi faxriy unvonlarning ta'sis etilganligini alohida ta'kidlab o'tish joiz. Mazkur faxriy unvonlarni topshirish esa Prezidentimizning vakolatlaridan biridir.

Prezidentimiz islohot arafasida qilgan nutqida maktablarning moddiy bazasi juda nochor ahvolda ekanligini, birinchi navbatda qishloq joylardagi ahvol-vaziyat misolida ochiq tan olishimiz kerakligini ta'kidlagan va bunga juda dolzarb masala sifatida qaradi.

Qishloq bolalarining bugungi ahvoli qanday, ularda ta'lim jarayoni qanday kechmoqda? Albatta, bu masalalarni yurtboshimiz ta'kidlaganidek "birdaniga yechish qiyin, bu misollar bosqichma-bosqich"⁹ amalga oshirilishi lozimdir.

Prezidentimiz ta'limni isloh qilishda adabiyotlarning tutgan rolga alohida e'tibor qaratdi. Darsliklar "eski qolipda, mustabit davrida yozilgan"ligini bu esa o'z navbatida bolalarning erkin fikr yurita olish qobiliyatlarining shakllanishiga to'siq bo'lishini isbotlab bergan edi.

Xalqaro hamkorlikda xorijiy tillarning tutgan o'rni alohida bo'lib, xorijiy tillarni o'rganishning ahamiyatini Prezidentimiz alohida ta'kidlab shunday dedi:

"Ammo shunga alohida urg'u berishimiz zarurki, chet tillarni o'rganish min'bad ona tilini esdan chiqarish hisobiga bo'lmasligi lozim". Zero, "o'z fikrini mutlaqo mustaqil ona tilida ravon, go'zal va lunda ifoda eta olmaydigan mutaxassisning rahbar kursisida o'tirganlarni bugun tushunish ham, oqlash ham qiyin."¹⁰

O'ziga hech qanday chiroyli sharh talab qilmaydigan yuqoridagi g'oyalarni o'qib bugungi kunimiz uchun ham ahamiyatliliga amin bo'lamiz.

Mustaqil fikr yuritish demokratiyaning muhim ko'rinishlaridan biridir, bu esa o'ta dolzarb masala bo'lib, bolalikdan ota-ona, ta'lim muassasalari va keng jamoatchilikdan bu masalaga katta mas'uliyat talab etadi.

⁹ Karimov. I.A. Barkamol avlod- O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. T., Sharq, 1999 yil 13 bet

¹⁰ Karimov. I.A. Barkamol avlod- O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. T., Sarq, 1999 yil 13 bet

Prezidentimiz Islom Abdug'aniyevich Karimov islohoti arafasida bolalarning maktabda mustaqil fikr yuritishga e'tibor berish lozimligining ahamiyatini isbotlab shunday deydi: "-demokratik jamiyatda bolalar umuman har bir inson erkin fikrlaydigan etib tarbiyalanadi."¹¹

Shu bilan Prezidentimiz "demokratiya" bilan "erkin fikr yuritish"ning ajralmasligiga diqqatimizni qaratadi.

Zero, jamiyatda erkin fikr yuritish bo'lmasa demak, demokratiya ham bo'lmaydi, yoki aksincha, bular bir-biri bilan bog'liq bo'lgan g'oyalardir.

Shu o'rinda bu xususdagi muammolarga bag'ishlangan tadqiqotlar natijasini misol tariqasida keltiramiz mamlakatimizning qishloq o'quvchilaridan "siz o'zingizning birorbir misolga qarshi yoki aksincha bo'lgan fikringizni o'qituvchilaringizga ayta olasizmi" deb so'rov berganimizda 45% «ha» deb javob berishdi, qolgan 55%i «yo'q» deb javob berishdi. Shahar maktablarida esa bu ko'rsatkich 60% «ha» javobini bergan bo'lsa, 40% "yo'q" deb javob berishdi. Nima uchun deb so'ralganda esa, "baribir o'qituvchi o'zining aytganini maqullaydi" agar qarshi chiqsak bahomiz pasayib ketadi deb javob berishdi. Shu o'rinda shuni ta'kidlash joizki, o'quvchilarning huquqiy madaniyatligi, ularning dars jarayonidagi hatti-harakatlarini belgilaydi va ularning o'z fikr mulohazalarini erkin ifodalay olishlarini ro'yobga chiqaradi.

Respublikamizda amalga oshirilayotgan o'zbek modeli deb nom olgan islohotlarning asosini tashkil etadigan besh tamoyilning birida islohotlarni bosqichma-bosqich o'tkazish g'oyasi ilgari surilgan. Hozirgi kunda mazkur tamoyilning bizning hayotimizga qanchalik mos ekanligi barchamizga ma'lum.

Prezidentimiz Islom Abdug'aniyevich Karimov tomonidan ta'lim tarbiya sohasida belgilangan islohotlarni hayotga tadbiiq qilishda ham yuqoridagi bosqichma-bosqichlik g'oyasi tamoyil sifatida belgilanadi.

Bunda "o'tish davri" bo'lgan birinchi bosqich 1997-2001 yillarni o'z ichiga oldi.

¹¹ I.A.Karimov Barkamol avlod- O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. Toshkent. Sharq, 1999 yil 16 bet.

O'tish davri deyilganda ko'z oldimizga bir tuzumdan, ikkinchi tuzumga, bir ko'rinishdan ikkinchi ko'rinishga o'tish va hokazolar keladi. Ammo ta'lim sohasidagi o'tish davri ta'lim sohasi uchun butunlay yangi davrning, yangi sharoitlarning boshlanishini ko'z oldimizga keltiramiz. Bu davrda kadrlar tayyorlash tizimining «salohiyatini saqlab qolish, uning rivojlanishi uchun huquqiy- me'yoriy, ilmiy-metodik moliyaviy-moddiy shart sharoitlar yaratish lozim»¹² ligini ilgari surdi.

Ikkinchi bosqich – 2001-2005 yillarni o'z ichiga olib, "Bunda Milliy dasturni keng miqyosda to'liq amalga oshirishga erishish" g'oyasi ilgari surilgan.

Albatta, bunda birinchi o'rinda ta'lim faoliyatining samaradorligini oshirish, mehnat bozorining ehtiyojlarini hisobga olib, shuningdek ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlardan kelib chiqib, dastur g'oyalari va qoidalariga kerakli o'zgartirishlar kiritilishi lozimligi ta'kidlangan.

Uchinchi bosqich – 2005 yil va undan keyingi yillarga mo'ljallangan bo'lib, unda to'plangan tajribalarni tahlil etish va umumlashtirish asosida o'zgaruvchan ijtimoiy –iqtisodiy shart-sharoitlarni e'tiborga olgan holda kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish va yanada rivojlantirish zarurligi ta'kidlangan. Bunda Prezidentimiz milliy dastur qoidalarini amalga oshirishda "shoshilmaslik", "og'ishmaslik", "izchillik" kabi g'oyalarga e'tiborni qaratgan. Mazkur g'oyalarga amal qilingandagina umumiy madaniyatni yuksaltirishimiz, yoshlarning jamiyatda o'z munosib o'rnini topishiga xizmat qila olishimiz mumkin deydi.

Prezidentimiz ta'lim tizimining asosiy bosqichini tashkil etuvchi uzluksiz ta'lim tizimiga alohida e'tibor berish lozimligini, umumta'lim dasturlarini esa maktabgacha tarbiya, boshlang'ich umumiy ta'lim va maktabdan tashqari ta'lim tarzida tuzish, maqsadga muvofiq bo'ladi deydi. Oliy ta'limni bakalavrluk va magistraturaga bo'linishi zarur deb hisoblaydi va yurtboshimiz ularni quyidagicha belgilab berdi: "bakalavrluk yo'nalishlaridan biri bo'lib, bazaviy oliy ta'lim berish demakdir va o'qish muddatining kamida 4 yil davom etishi, oliy ma'lumot va

¹² Karimov I.A Barkamol avlod- orzusi. -T., 2000 O'z. Milliy ensiklopediyasi. 22 bet

tayanch mutaxassislik diplomi olish bilan tugaydi; magistratura esa aniq mutaxassislik bo'yicha oliy kasbiy ta'lim bo'lib, bakalavrlik negizida kamida ikki yil davom etadi, undagi tahsil esa magistrlik dissertatsiyasini himoya qilish bilan nihoyasiga yetkaziladi"¹³ deb belgilandi.

Shuningdek, oliy ta'limning yakunlovchi bosqisi sifatida asperantura va doktoranturani belgiladi.

Prezidentimiz kasbiy ta'lim – qayta tayyorlash va malaka oshirish masalasiga ham katta e'tibor berdi. Darhaqiqat, bu o'ta dolzarb masala bo'lib, busiz mamlakat kadrlarining sifati bo'lmaydi.

Prezidentimiz ta'lim tarbiya tizimini isloh qilayotganda bir muhim masalaga katta e'tibor berishimiz lozimligini ta'kidladi, ya'ni olimlarning fikriga ko'ra, normal rivojlangan bolalarni 6 yoshdan maktabga qabul qilish ularning aqliy, ruhiy va jismoniy kamolati, o'quv dasturlarini yaxshi o'zlashtirishda ijobiy samara berishi mumkinligini, shuningdek bolalar 6 yoshdan o'qishga qabul qilishda ularni har biriga alohida yondashish, birinchi navbatda ularning salomatligi va zehni, shuuri qay darajada shakllanganligi e'tiborga olinishi kerakligiga e'tibor qaratgan.

Shu o'rinda mutaxassislar o'tkazgan ilmiy tadqiqotlarga ko'ra Respublikamizda bolalarning 10-30%i yuqori aytilgan sabablarga ko'ra, 6 yoshdan maktabga tayyor emasligi, bu o'rinda ayrim qishloq sharoitida o'sayotgan bolalarning tahminan 50%i mazkur sababga dahldorligi, bularning barchasini hisobga olgan holda bolalarni 6-7 yoshdan maktabga qabul qilish (ularning jismoniy va aqliy yetukligini e'tiborga olgan xolda) maqsadga muvofiq deb¹⁴ belgilanadi.

Ikkinchi turdagi uch yillik o'quv yurtlari, ya'ni kasb hunar o'quv yurtlari, zamonaviy kasb hunar bera olishi bilan oldingi PTU lardan tubdan farq qilishi kerak, bu haqda Prezidentimiz Islom Abdug'aniyevich Karimov shunday deydi: - "har bir hududning o'ziga xos, jug'rofiy, etnik xususiyatlaridan va extiyojlaridan kelib chiqib, bolalarning ota-onalari bag'rida o'qishi kasb hunar egallashi va shu

¹³ Karimov I.A Barkamol avlod- O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. -T., «SHarq», 1999 y, 25 bet

¹⁴ Yuqoridagi manba.

bilan birga, bu bilim yurtlari o'sha hududning madaniy ma'rifiy markaziga aylanishi lozim"

Yuqoridagi fikrlarga asoslanib shuni ta'kidlash lozimki Prezidentimiz ilgari surgan "har hududning o'ziga xos, jug'rofiy, etnik xususiyatlaridan kelib chiqishi" o'ta dolzarb muammodir.

Taraqqiy etgan mamlakatlarning ta'lim sohasidagi tajribalarini o'rganar ekanmiz, shunga amin bo'ldikki, ayniqsa Germaniya, Yaponiya kabi mamlakatlarda kasb hunar ta'limini yegallovchilar asosan o'zlari yashayotgan hududlardagi kadrlarga bo'lgan extiyojlaridan kelib chiqib ta'lim olishadi. Bu esa albatta ishsizlikning oldini oladi, shuningdek, ayrim tarmoqlardagi (ishlab chiqarishning) kadrlarga bo'lgan extiyojlarini qondiradi.

Prezidentimiz Islom Abdug'aniyevich Karimov "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ni amalga oshirishning murakkab tomonlaridan biri sifatli o'qituvchi kadrlar masalasi ekanligini ilgari surgan. Darhaqiqat, o'qituvchilar ularning sifati, jahon tajribalariga asoslangan yangi o'quv dasturlarini amalga oshirishga tayyorligi masalasi o'ta dolzarb muammodir. Ushbu muammoni yechish uchun Pedagogika institutlari va universitetlarida 3 yillik bilim yurtlari uchun o'qituvchilarni tayyorlaydigan maxsus fakultetlarni tashkil etish lozim, viloyatlarda (har bir) esa 3 yillik bilim yurtlarida ishlashi mumkin bo'lgan maktab o'qituvchilarining malakasini oshirish va qayta tayyorlashni yo'lga qo'yuvchi alohida markazlar ochish zarurligini Prezidentimiz ta'kidlagan edi.

Va nihoyat, ta'lim tarbiya sohasini tubdan isloh qilishda, davlat byudjeti miqdori (qo'shimcha sarf harajatlarning xajmi o'tishi davrining o'zida taxminan 65 milliard so'mni tashkil etish)ni belgilaydi.

Prezidentimiz mamlakatimiz fuqorolarining har birining qalbida Millat, Vatan, Xalq istiboqli kabi muqaddas g'oyalarning o'rin olishi lozimligini shunday ifodalaydi: -"Bizning avlodlarimiz hamisha uzoqni ko'zlab yashagan, Millat, Vatan, Xalq istiboqli dagan muqaddas tushunchalar hamma vaqt qalbimizning to'rida joy olib, har birimizning qalbimizda ongimizda, charx urib turishi darkor.

Chinakam xalq bo'lsak, chinakam millat bo'lsak, ulkan, qudratli daryoga aylanaylik, farzandlarimizga o'zgalar havas qiladigan ozod va obod vatan qoldiraylik."¹⁵ Biz mamlakatimiz Prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimovning O'zbekiston Respublikasining ta'lim sohasini isloh qilishga qaratilgan g'oyalarini ilmiy jihatdan o'rganib chiqib quyidagicha xulosaga keldik: Prezidentimiz Islom Abdu-g'aniyevich Karimov Respublikamiz ta'lim sohasining isloh qilinishi ijodkori va tashabbuskoridir.

Shu o'rinda Prezidentimiz Islom Abdug'aniyevich Karimovning mamlakatimiz yoshlari to'g'risida jon ko'ydirib, ularning kelajagi haqida qayg'urini quyidagi jumladan bilib olishimiz mumkin: -"men zamonaviy fikrlaydigan, vatanga sadoqat ruhida tarbiya olayotgan, jahon taraqqiyoti va madaniyati bilan hamdard bo'lishga intilayotgan yuz minglab yoshlarimiz bilan bir qatorda hali shu darajaga yetmagan qanchadan-qancha farzandlarimiz ham borligini o'ylasam, oldimizda naqadar katta muammolar turganini yaqqol tasavvur etaman."¹⁶

O'zbek halqining jonkuyar farzandi, jamiyatimizning taraqqiyot yo'llarini oldindan ko'ra biluvchi, barcha sohalaridagi islohatlarning asoschisi Islom Karimovning ta'lim sohasini isloh qilishdagi bebaho xissasini o'rganib chiqar ekanmiz, Prezidentimizning jamiyatimizda milliy g'oyani shakllantirish to'g'risidagi quyidagi fikrlarni kiltirib o'tish joiz deb topdik: - "Bu haqda o'ylaganda meni bir savol qiynaydi. Nega endi sho'ro xukumati o'z soxta g'oyalarini omma ongiga singdira olardi-yu, biz esa xalqimizning asl manfaatlarini ifodalaydigan, uning faravon turmushi va baxtli kelajagi uchun xizmat qiladigan xaqqoniy milliy g'oyalarni odamlarimiz ongiga singdira olmaymiz?

Menimcha, buning sababi shundaki biz demokratik jamiyat qurar ekanmiz, mafkuraviy zo'rovonlikni rad etdik. Biz kishilarning siyosiy ongi, dunyoqarashini boshqarish emas, balki boyitish, yuksaltirish insoniylik ruhida umumjaxoniy me'yorlar asosida tarbiyalash yo'lidan bordik"¹⁷. Darxaqiqat, qariyb 70 yil

¹⁵ I.A.Karimov Barkamol avlod orzusi. – Toshkent., O'zbekiston milliy ensok. 2000 yil 72 bet

¹⁶ Qarang yuqoridagi manba 74-bet.

¹⁷ Qarang yuqoridagi manba 74-bet.

xalqimiz mafkuraviy xukumronlik zanjirida yashadi. Bu davr mafkuraviy xukumronlik barcha sohada xukumronlik qilgani singari ta'lim sohasini ham egallab olgan edi.

Prizidentimiz I.A. Karimovning ta'lim sohasini isloh qilishga qaratilgan nutqlari, ilmiy asarlarini o'rganib, nazariy jihatdan taxlil qilish asosida quyidagilarni bugungi kunimiz uchun o'ta zarur deb ajratdik:

Birinchidan, Qonun ustunligi bizning islohatlar modelimizdagi yetakchi tamoyildir. U huquqiy davlatning asosiy mezonlaridan biri bo'lib xizmat qiladi.

Ikkinchidan, Ta'lim-tarbiya soxasida amalga oshirilayotgan isloxlarni xayotga tadbiiq etishda bosqichma- bosqich o'tkazish prinsiplarining qo'yilganligi.

Uchinchidan, ta'lim sohasida o'quv jarayonini insonparvarlashtirish.

To'rtinchidan, tarbiyalanuvchilarda erkin fikrlash qobiliyatini shakllantirish va rivojlantirish.

Beshinchidan, ta'lim turlarini tanlashda erkinlik.

Oltinchidan, ta'limni isloh qilish davlatimizning ustivor vazifasidir.

Ettinchidan, ta'lim sohasini isloh qilishda halqaro hamkorlikka e'tibor qaratish kabi dolzarb masalalar.

Prizidentimiz I.A. Karimov o'zining ajoyib taxlil qobiliyati, kelajakni oldindan ko'ra olishi, nozik xis etish iste'dodiga ega ekanligini quyidagi fikrlar orqali yaqqol tasavvur qila olamiz: ya'ni, kadrlar tayyorlash milliy dasturida nazarda tutilgan vazifalar to'liq amalga oshgan taqdirda ular:

Birinchidan, "Ijtimoiy siyosiy iqlimga ta'sir qiladi va natijada mamlakatimizdagi mavjud muhit butunlay o'zgaradi;

Ikkinchidan, ta'limning yangi modeli ishga tushgach insonning hayotdan o'z o'rnini topishi tezlashadi;¹⁸

Uchinchidan, ta'limning yangi modeli jamiyatimizda mustaqil fikrlovchi erkin shaxsning shakllanishiga olib keladi. "o'zining qadr qimmatini anglaydigan, irodasi baquvvat, iymoni butun, hayotda aniq maqsadga ega bo'lgan insonlarni

¹⁸ Qarang. I.A.Karimov. Milliy davlatchilik, istiqlol mafkurasi va xuquqiy madaniyat tug'risida. –T; 1999 y 462 bet

tarbiyalash imkoniga ega bo'lamiz. Ana shundan keyin ongli turmush kechirish jamiyat hayotining bosh mezoniga aylanadi"¹⁹ deydi Prezidentimiz.

To'rtinchidan esa ta'limning yangi modeli jamiyatimizning potensial kuchlarini ro'yobga chiqarishda juda katta ahamiyat kasb etadi. SHu o'rinda har bir insonda muayyan darajada intellektual salohiyat majudligini takidlaydi.

Shuningdek, Prezidentimiz I.A.Karimov "Agar shu ichki quvvatning to'liq yuzaga chiqishi uchun zarur bo'lgan barcha shart –sharoit yaratilsa, tafakkur har xil qotib qolgan eski tushunchalar va aqidalardan halos"²⁰ bo'lishini ta'kidlaydi.

Beshinchidan, Biz fuqarolik jamiyat qurishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'yganmiz. Bu sohada dastlabki, ammo muhim qadamlar qo'yildi. Ishonchim komilki, vaqti soati kelib, bugungi o'tish davri uchun zarur bo'lgan kuchli davlat funksiyalari va alomatlari asta sekinlik bilan tadrijiy ravishda kuchli jamiyat zimmasiga o'tadi.

1.2. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi va ta'lim islohatlarining takomillashuvi

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so'ng 1992 yil 2 iyulda "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunning qabul qilinishi ta'lim tizimida islohotlarni boshlab berdi. Maktablarning moddiy va o'quv texnika bazasini mustahkamlash, ta'lim dargohlarini pedagog kadrlar bilan ta'minlash, ta'lim va tarbiyani milliylik asosida takomillashtirish, ta'lim sohasida rivojlangan davlatlar tajribasini o'rganish asnosida bu tizimni jahon andozalariga yaqinlashtirish borasida muhim tadbirlar amalga oshirildi.

Asosiy qonunimiz Konstitutsiyamizda esa har bir fuqoro bepul ta'lim olish huquqiga ega, ta'limning davlat nazoratida ekanligi kafolatlanadi,²¹ deya alohida ta'kidlangan.

¹⁹ O'sha joyda.

²⁰ O'sha joyda.

²¹ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. - Toshkent: O'zbekiston, 2009 yil. - B.9.

1997 yil 29 avgust O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IX sessiyasida yangi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi qabul qilindi.²² Kadrlar tayyorlash milliy dasturida mamlakatimizda ta'lim islohotlarini yanada chuqurlashtirish vazifalari va dasturlarni ruyobga chiqarish bosqichlari asoslab berildi.

«Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi» milliy tajribaning tahlili va ta'lim tizimidagi jahon miqyosidagi yutuqlar asosida tayyorlangan bo'lib, u milliy modelni ro'yobga chiqarishni, har tomonlama kamol topgan, jamiyatda turmushga moslashgan ta'lim va kasb-hunar dasturlarini ongli ravishda tanlash va keyinchalik puxta o'zlashtirish uchun ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy, pedagogik-psixologik va boshqa tarzdagi sharoitlarni yaratishni, jamiyat, davlat va oila oldidagi javobgarligini his etadigan fuqarolarni tarbiyalashni²³ o'z oldiga maqsad qilib olgandir.

- «Bizga milliy kadrlar tayyorlashning maxsus dasturi kerak, bu dastur:
- umumiy ta'lim maktablarida dars berish sifatini oshirish (o'qituvchilarni, metodistlarni qo'shimcha ravishda moddiy ralatlantirish, maxsus sinfxonalar barpo etish, oliy o'quv yurtlarining maktablarini otaliqqa olishni yo'lga qo'yish va shu kabilarni);
- eng iste'dodli bolalar uchun maktablar ochishni;
- korxonalar bilan maktablar o'rtasida sifat jihatidan yangi munosabatlarni joriy etishni;
- hunar texnika bilim yurtlarida ho'jalik hisobini joriy qilishni va shu asosda ommaviy kasb kadrlari tayyorlash sifatini keskin oshirishni;
- oliy o'quv yurtlarida mutaxassislar tayyorlash sistemasini qayta qurishni, bu sohaga kadrlar tayyorlashni buyurtma berish usulini joriy etishni o'z ichiga olishi kerak»²⁴ degan edi Prezidentimiz Islom Abdug'aniyevich Karimov.

Milliy dasturning hayotimizga tadbiq etilishi uch bosqichda belgilandi.

²² O'zR Oliy Majlisining axborotnomasi. - Toshkent:1997.№9.-B.225.

²³ O'zbekistonning yangi qonunlari. -T., «Adolat», 1998 y. 18-son, 10-bet.

²⁴ O'n ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining navbatdan tashqari t'qqizinchi sessiyasidagi nutqidan. «Ma'rifat» gazetasi. 1992 y., 7 yanvar.

Birinchi bosqich, 1997-2000 yillarda amaldagi ta'lim tizimining ijobiy jihatlarini saqlab qolish asnosida huquqiy-me'yoriy, ilmiy-metodik, moddiy-moliyaviy shart-sharoitlar yaratish, yangi talablarga javob bera oladigan pedagogik kadrlarni tayyorlash, davlat ta'lim standartlarini yaratish va yangi o'quv dasturlari ustida ishlash, umumta'lim maktablarini tuzilish jihatdan qayta qurish, uch yillik ta'lim, o'rta maxsus va kasb-hunar bilim yurtlari (akademik litsey va kasb-hunar kolleji) tizimiga zamin tayyorlash, uzluksiz ta'lim-tarbiya tizimiga asos soladigan tadbirlarni amalga oshirish va ijtimoiy himoyani kafolatlash kabi masalalar belgilab qo'yildi.

Ikkinchi bosqich, 2001-2005 yillarda Milliy dasturda belgilangan vazifalardan to'laqonli ravishda amaliyotga tadbir etish maqsad qilib qo'yildi. Bu bosqichda avvalambor, majburiy umumiy o'rta va maxsus, kasb-hunar ta'limiga, shuningdek, o'quvchilarning qobiliyatlari va imkoniyatlariga qarab tabaqalashtirilgan ta'limga o'tishni to'liq amalga oshirish, ta'lim muassasalarini maxsus tayyorlangan malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash, ularning faoliyatida raqobatga asoslanagn muhitni vujudga keltirish ko'zda tutildi.

Uchinchi bosqich, 2005 va undan keyingi yillarda to'plangan tajribani tahlil etish va umumlashtirish asosida mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish istiqbollari muvofiq kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish va yanada rivojlantirish hamda ta'lim muassasalarining resurs kadrlar va axborot bazalarini mustahkamlash, o'quv-tarbiya jarayonini yangi o'quv-uslubiy majmualar, ilg'or pedagogik texnologiyalar bilan to'liq ta'minlash, o'quv jarayonini axborotlashtirish, uzluksiz ta'lim tizimini jahon axborot tarmog'iga ulanadigan kompyuter axborot tarmog'i bilan to'liq ta'minlash kabi vazifalarni amalga oshirish nazarda tutildi.²⁵

Dastur asosida kadrlar tayyorlashning "milliy model"i yaratildi. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi O'zbekistonning strategik maqsadi rivojlangan demokratik davlat barpo etish taraqqiy etgan mamlakatlar hamjamiyatining teng

²⁵ Qarang: Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – Toshkent: SHarq, - B.13, 40-41.

huquqli a'zosiga aylanishning ifodasidir. Ana shu ulug'vor maqsaddan kelib chiqib, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" uzluksiz ta'lim tizimi orqali har tomonlama kamol topgan shaxsni shakllantirishni vazifa qilib qo'yadi.

Bugungi kunda ta'lim tizimida ta'lim-tarbiya sifat samaradoligini eng asosiy va kechiktirib bo'lmas galdagi rivojlantirishning asosiy vazifasi –ta'lim tizimini muqobil rivojlantirish mexanizmini yaratish, XXI asr shiorlari hamda mamlakatni rivojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlari, shaxs, jamiyat va davlatning talabalariga mos kelishini ta'minlashdan iboratdir.

Mazkur Dasturning maqsadi- tayyorlanayotgan kadrlarning demokratik o'zgarishlar va bozor islohoti talablariga muvofiqligi, raqobatbardoshligi, yuqori malakaga ega bo'lishini ta'minlashdir. Uni ruyobga chiqarishning asosiy yunalishlari va quyidagilardan iborat:

Birinchidan, ta'limning uzviyligi va uzluksizligini ta'minlash. Bunda umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi, oliy pedagogik ta'lim hamda oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim, ilmiy pedagog kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash tizimida uzviylik va uzluksizlikni ta'minlanadi. Institutdagi ta'lim va tarbiya faoliyatiga ilg'or pedagogik va tarbiya texnologiyalarini tadbiq etishning ilmiy-nazariy asoslarini yaratish, fanlarning tarbiyaviy, ta'limiy, shaxsni shakllantiruvchi funksiyalari yaxlitligini ta'minlovchi uzviylashtirilgan dasturlarini ishlab chiqish, ta'lim sifati ko'rsatkichlari va mezonlarini takomillashtirish, talabalar bilimni baholashning avtomatlashtirilgan nazorat va boshqaruv tizimini yaratish, monitoringini shakllantirish, oliy pedagogik ta'limda fanlarni fundamentallashtirish amalga oshirilishi nazarda tutiladi.

Ikkinchidan, oliy ta'lim tizimida pedagog va ilmiy-pedagog kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishdagi mavjud tizimni takomillashtirish, professor-o'qituvchilarning kasbiy mahoratini oshirish, kasb tavsiyanomalari, ularning ma'naviy kamolot darajasini aniqlash metodikasini ishlab chiqish, ilmiy ijodiy salohiyatini, kompyuter savodxonligini oshirish, xorijiy

tilni o'zlashtirish darajasi, oliy ta'lim muassasasi rahbar kadrlari zahirasini yaratishga e'tibor kuchaytiriladi.

Uchinchidan, ta'lim mazmunini milliy, umuminsoniy qadriyatlar va an'analar asosida jahon talablari darajasida takomillashtirish yo'nalishida ta'lim oluvchilarning yuksak kasbiy tayyorgarlik darajasi, malakasi, ma'naviy-axloqiy tarbiyasiga nisbatan qo'yiladigan talablarni belgilab beruvchi va ta'lim sifatini jahon talablari darajasiga ko'tarilishga qaratilgan Davlat ta'lim standartlari, o'quv reja va fan dasturlarining yangi avlodi ta'lim jarayoniga tadbiiq qilinadi, global fikrlash, global kasbiy mahoratga ega bo'lish tamoyilini ta'minlovchi ta'lim mazmuniga erishiladi, axborot texnologiyalari va kompyuterlar asosida ta'lim olishni o'quv-uslubiiy majmualari yaratiladi va amalga tadbiiq qilinadi, talabalar bilimini baholashda xorijiiy davlatlar oliy o'quv yurtlari tajribasidan kelib chiquvchi reyting tizimi yaratilib ta'lim jarayoniga joriiy etiladi, muqobillik va raqobatga asoslangan o'quv adabiiyotlarining yangi avlodini yaratishda ishtiirok etiladi.

To'rtinchidan, ma'naviiy barkamol, g'oyaviiy kurashchan va ijtimoiy faol shaxsni shakllantirishga mexanizmini takomillashtirish yunalishi barkamol shaxsni shakllantirish konsepsiiyasini ishlab chiqish, talaba-yoshlarda mafkuraviiy immunitet va g'oyaviiy kurashchanlikni shakllantirishning ilmiy asoslarini yaratish hamda amaliiy ko'nikma hosil qilish mexanizmini ishlab chiqish va amaliiyotga tadbiiq qilish va boshqa vazifalarni taqoza qiladi.

Beshinchidan, iqtidorli talaba yoshlarni tarbiyalashni takomillashtirish yunalishi mazkur jarayonning ilmiy asoslangan psixologik-pedagogik va ilmiy-metodik ta'minotini, abiturentlar tayyorlash tizimini yaratish va amalga tadbiiq qilishni o'z ichiga oladi. Dasturda ta'lim sifatini oshirish va uning monitoringi va boshqaruv tizimini takomillashtirish, oliy ta'lim tizimini globalizatsiiya jarayonlariga tayyorlash, ta'lim tizimini moliyalashtirishni takomillashtirish, oliy ta'lim tizimining zamonaviiy moddiy-texnik bazasini yaratish ta'lim tizimiga axborot texnologiiyalarini joriiy etish, ta'lim xizmatlari bozorini rivojlantirish, ijtimoiy kafolatlarni ta'minlash, ilmiy-tadqiqot ishlarini rivojlantirish va ilmiy-

pedagogik kadrlarni tayyorlash, moddiy-ilmiy texnik bazani mustahkamlash, innovatsion va integratsion jarayonlarni rivojlantirish, chet el bilan ilmiy aloqalar, fan va ishlab chiqarish va ta'lim tizimi integratsiyasini rivojlantirish, halqaro hamkorlikni rivojlantirish yo'nalishlari bo'yicha vazifalar, ularni amalga oshirish bo'yicha tadbirlar nazarda tutilgan.

Shuni ta'kidlash zarurki, «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi» O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunini amalga oshirishda asosiy «yo'l ko'rsatuvchi» hujjat hisoblanar ekan, unda jamiyatimizning barcha jabhalariga e'tibor qaratilgan. SHunday ekan, undagi «Ta'lim sohasida ijtimoiy kafolatlarni ta'minlash hamda bu sohani davlat tomonidan qo'llab quvvatlash» deb nomlangan qismida shunday deyiladi. «Alohida e'tiborga muhtoj bo'lgan hududlar»dagi ta'lim muassasalariga alohida e'tibor qaratiladi. Ulardagi bolalarning o'qish, bilim olishlariga birinchi o'rinda sharoit yaratiladi», deb belgilanishi va uning ijrosi ta'minlanishi lozim. Zero, bola huquqlarini ta'minlash ularning yaxshi, sog'lom muhitda o'sib-ulg'ayishi, ta'lim-tarbiyani qulay sharoitlarda olishi zarurdir.

O'zbekiston xalqi o'z oldiga huquqiy-demokratik davlat, fuqarolik jamiyatini bunyod etishni maqsad qilib qo'ydi. «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi»ning hayotga tadbiiq etilishi Xalqaro hamjamiyatda o'z o'rnimizni mustahkam egallashga olib keladi. Chunki, dunyoning bugungi kunimizdagi taraqqiy etishi harbiy qudratga bog'liq emas, balki intellektual salohiyatda, ilg'or texnologiyalardadir.

Shu o'rinda Prezidentimizning fikrlarini keltirib o'tish o'rinlidir: - «Ta'limning yangi modeli jamiyatda mustaqil fikrlovchi erkin shaxsning shakllanishiga olib keladi. o'zining qadr-qimmatini anglaydigan, irodasi baquvvat iymoni butun, hayotda aniq maqsadga ega bo'lgan insonlarni tarbiyalash imkoniga ega bo'lamiz. Ana shundan keyin ongli turmush kechirish jamiyat hayotining bosh mezoniga aylanadi»²⁶

²⁶ I.A.Karimov. «Barkamol avlod orzusi». –T., «O'zbekiston Miliy Ensiklopediyasi», 2001 yil, 208-bet.

Darhaqiqat, Milliy dastur ta'limning barcha turlarini muvaffaqiyati hayotimizga tatbiq qiluvchi va uning kelgusidagi faoliyatiga ko'maklashishida alohida ahamiyatga ega bo'lgan me'yoriy hujjatdir.

II BOB. MUSTAQILLIK YILLARIDA NAVOIY VILOYATI TA'LIM TIZIMIDAGI ISLOHATLAR

2.1. Mustaqillik yillarida Navoiy viloyati ta'lim tizimidagi islohatlar

Butun Respublikada bo'lganidek Navoiy viloyatida ham mustaqillik yillarida ta'lim va maorif sohasiga katta e'tibor berilmoqda . O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risidagi» Qonuni va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» ning bosqichlarida belgilangan vazifalar hamda Prezidentimizning sohadagi islohotlarni jadallashtirishga oid farmonlarini amalga oshirish borasida Navoiy viloyatida xalq tizimida salmohli ishlar amalga oshirilmoqda .

Kadrlar tayyorlash milliy dasturini yanada muvaffaqiyatli amalga oshirish borasida 2004 yil 21 mayda qabul qilingan “2004 –2009 yillarda maktab ta'limini rivojlantirish davlat umummilliy dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Prezident Farmoni hamda Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 9 iyulidagi “2004-2009 yillarda maktab ta'limini rivojlantirish davlat umummilliy dasturini amalga oshirish chora tadbirlari to'g'risida” gi Qarori ham muhim rol o'ynadi. Ushbu dastur asosida umumta'lim maktablari binolari va muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasini tubdan yangilash va rekonstruksiya qilish borasida muayyan ishlar amalga oshirildi.

O'zbekiston Respublikasi hukumati maktablarning sport bazasini rivojlantirishga ham muhim e'tibor qaratdi. Ayniqsa, Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 27 maydagi “O'zbekistonda jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Qarori va uning ijrosi yuzasidan olib borilgan ishlar maktablarda sport moddiy-texnik bazasini mustahkamlashga yordam berdi. Fizkultura va sport sohasida Navoiy viloyatida 1991 yil va 2001 yillar orasida 192 ta stadion, 136 ta sport zallari, 276 ta voleybol maydoni, 193 ta basketbol maydoni,

1 ta suv xavzasi, 130 ta o'q otish tirlari, 202 ta safda yurish va 252 ta gimnastika maydonlari hamda 149 ta to'siqdan o'tish yo'lakchalari qurilib foydalanishga topshirildi²⁷.

Navoiy viloyatining umumta'lim maktablarida 1999 yilda 217098 nafar o'quvchi ta'lim-tarbiya olgan bo'lsa, 2003 yilda 377 ta umumta'lim maktabida 201317 nafar o'quvchi, 2005 yilda 375 ta umumta'lim maktabida 171222 nafar o'quvchi, 2007 yilda 368 ta umumta'lim maktabida 160370 nafar o'quvchi, 2009 yilda 366 ta umumta'lim maktabida 140985 nafar o'quvchi tahsil olgan. 2011 yilda Navoiy viloyatida 343 ta umumta'lim, 2 ta maxsus maktab internat, 14 ta ixtisoslashgan maktab va internatlar viloyatda xalq ta'limi tizim faoliyat ko'rsatib, unda 131813 nafar o'quvchilar tahsil olmoqda²⁸.

Viloyatda akademik litsey va kasb-hunar kollejlari soni 2003 yilda 29 tani tashkil etib, ularda 21268 talaba tahsil olgan bo'lsa, 2011 yilga kelib akademik litsey va kasb-hunar kollejlari soni 51 taga yetdi va ularda ta'lim olayotgan talabalar soni 56145 nafarni tashkil etdi.²⁹

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 9-iyuldagi «2004–2009 yillarda Maktab ta'limini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturini Navoiy viloyatida amalga oshirish chora-tadbirlari tug'risida»gi qarori asosida viloyatda 2004-2009 yillarda 10 ta maktab yangi quriladigan, 78 ta maktab kapital rekonstruksiya qilinadigan, 140 ta maktab kapital, 94 ta maktab joriy tamirlanadigan va 62 ta sport komplekslari qurilishi rejalashtirilgan bo'lib, shundan birgina 2006 yilning 9 oyi davomida Vazirlar Maxkamasining 2004 yil 9 iyuldagi «2004-2009 yillarda maktab ta'limini rivojlantirish davlat umummilliy dasturini 2006 yilda amalga oshirish chora-tadbirlari tug'risida»gi 321-sonli qarori asosida 47 ta maktab qurilish va tamirlash ishlari amalga oshirildi. SHundan, 1 ta maktab internat yangidan qurildi, 13 ta maktabda kapital rekonstruksiya qilindi, 17 ta maktabda kapital va 16 ta maktabda joriy ta'mirlash ishlari amalga oshirildi. Bular

²⁷ O'zR XTB Bolalar sportini rivojlantirish bo'limining joriy arxiv hujjatlari. "Bolalar sportini rivojlantirish davlat dasturi" yuzasidan 1991-2001 yilda amalga oshirilgan ishlar yuzasidan umumiy –tahliliy hisoboti. 14 ish, 29-varaq.

²⁸ Navoiy viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari

²⁹ Navoiy viloyati O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi boshqarmasi joriy arxiv materiallari

jumlasiga yangidan qurilgan Xatirchi tumanidagi A.Qozoqov nomli litsey internat,kapital rekonstruksiya qilingan Qiziltepa tumanidagi 32-sonli, Karmana tumanidagi 17-sonli, Xatirchi tumanidagi 4,16 va 72-sonli, Uchquduq tumanidagi 13-sonli, Nurota tumanidagi 1,5 va 15-sonli, Navbahor tumanidagi 8,31-sonli,Tomdi tumanidagi 7-sonli, Konimex tumanidagi 14-sonli maktablar xamda kapital tamirlanganQiziltepa tumanidagi 23-sonli, Xatirchi tumanidagi 22-sonli, Navoiy shaxridagi 10 va 15-sonli, Tomdi tumanidagi 11 va 24-sonli, Karmana tumanidagi 8-sonli, Navbahor tumanidagi 10 va 36-sonli, Nurota tumanidagi 6 va 29-sonli va Konimex tumanidagi 2 va 40-sonli maktablarda qurilish tamirlash ishlari yakunlandi.

Bundan tashqari,2007 yilning manzilli dasturiga kiritilgan yangidan quriladigan 2 ta,kapital rekonstruksiya qilinadigan 16 ta kapital tamirlanadigan 23 ta maktablarni ruyxati tasdiqlandi. Bular jumlasiga Zarafshon shahridagi Abay posyolkasida 420 o'rinli hamda Konimex tumanidagi 315 o'rinli 9-maktablarning binolari yangidan quriladi. Xatirchi tumanidagi 15,25,66 va 82 sonli,Navbahor tumanidagi 5,15 va 26 sonli, Nurota tumanidagi 2,8,11va 38 sonli,Konimex tumanidagi 39-sonli,Karmana tumanidagi 7 va 16 – sonli, Tomdi tumanidagi 10-sonli va Uchquduq tumanidagi 13-kichik tumandagi 30- sonli maktablar kapital rekonstruksiya qilinadi. Bundan tashqari Xatirchi tumanidagi 52,75,14 va 38 sonli,Navoiy shahridagi 2 va 9-sonli,Karmana tumanidagi 5-sonli,Nurota tumanidagi 3 va 20-sonli, Qiziltepa tumanidagi 12,8,21 va24-sonli,Navbaxor tumanidagi 1, 18, 12 va 27-sonli,Uchquduq tumanidagi 3 va 7-sonli hamda Tomdi tumanidagi 13 va 23 –sonli maktablar kapital tamirlanadi. SHundan 2 ta yangi qurili va 16 ta kapital rekonstruksiya uchun tender tanlovi o'tkazilib g'olib pudratchi tashkilotlar aniqlangan va obektlarni barcha ishlar jadal boshlangan

O'zbekiston Respublikasi “Ta’lim to’g’risidagi” va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to’g’risida”gi qonunlariga muvofiq tizimida yuqori malakali kadrlar tayyorlash bo’yicha Navoiy viloyat o’rta maxsus, kasb-hunar ta’limi boshqarmasi tizimida muayyan ishlar amalga oshirilmoqda. Hozirda Navoiy viloyat o’rta maxsus, kasb-hunar ta’limi boshqarmasi tasarrufidagi ta’lim muassasalarida 96 ta

yo'nalish mavjud. Navoiy viloyat o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim boshqarmasi tasarrufidagi ta'lim muassasalarida 2006-2007 o'quv yilida 1 kursga 75 ta yo'nalish bo'yicha talabalar qabul qilingan bo'lib, ular yangi tasdiqlangan namunaviy o'quv rejalar asosida o'qitilmokda.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 29 oktyabrdagi «Umumiy o'rta va o'rta maxsus kasb-hunar ta'limiga izchil o'tishni ta'minlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi 473-sonli qarori asosida viloyatda 2009 yilgacha 35300 o'quvchi o'rinli 60 ta kasb-hunar kollejlari va 2760 o'quvchi o'rinli 4 ta akademik litseylar qurilishi rejalashtirilgan.

Viloyatda bugungi kungacha 21080 o'quvchi o'rinli 30 ta kasb-hunar kollejlari va 2760 o'quvchi o'rinli 4 ta akademik litsey, jami bo'lib 23840 o'quvchi o'rinli 36 ta ta'lim muassasalari qurilib foydalanishga topshirildi.

2006 yil viloyat milliy dasturiga asosan 2220 o'quvchi o'rinli 4 ta kasb-hunar kolleji hamda 720 o'quvchi o'rinli 1 ta akademik litsey qurilishi rejalashtirilgan bo'lib, joriy yilda ushbu ob'ektlar to'liq foydalanishga topshirildi. (3-ilova).

Ushbu ob'ektlarning qurilish va jihozlash, ishlariga xisobot davrigacha jami bo'lib 7842,2 ming so'm mablag' o'zlashtirildi.

Jumladan: Karmana tumani markazidagi 780 o'quvchi o'rinli pedagogika kasb-hunar kollejining qurilish va jihozlash ishlariga 1727,4 ming so'm mablag' sarf qilinib, ob'ekt joriy yilning oktyabr oyida foydalanishga topshirildi.

Navoiy shahridagi 540 o'quvchi o'rinli kompyuter texnologiyalari kasb-hunar kollejining qurilish va jihozlash ishlariga 1487,9 ming so'm mablag' sarf qilinib, ob'ekt joriy yilning oktyabr oyida foydalanishga topshirildi.

Qiziltepa tumani Vang'ozi qishlog'idagi 540 o'quvchi o'rinli qurilish, uy-joy kommunal xo'jaligi kasb-hunar kollejining qurilish va jihozlash ishlariga 1534,5 ming so'm mablag' sarf qilinib, ob'ekt joriy yilning sentyabr oyida foydalanishga topshirildi. Nurota tumani CHuya qishlog'idagi 360 o'quvchi o'rinli iqtisodiyot kasb-hunar kollejining qurilish va jihozlash ishlariga 1114,4

ming so'm mablag' sarf qilinib, ob'ekt joriy yilning oktyabr oyida foydalanishga topshirildi.

Navoiy shahridagi 720 o'quvchi o'rinli akademik litseyning qurilishi va jihozlanish ishlariga 1978,0 ming so'mlik mablag' sarf qilinib, ushbu ob'ekt joriy yilning 31 dekabrigacha foydalanishga topshirildi.

Shuningdek joriy yilda boshqarma tasarrufidagi ta'lim muassasalari markazlashgan mablag'lar hisobidan 673 mln. 176 ming so'mlik va chet el krediti hisobidan 28 mln 862 ming 835 so'mlik o'quv laboratoriya jihozlari bilan jihozlandi. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi O'zbekistonda tamomila yangi ta'lim modelini belgilab berdi. Unga ko'ra mamlakatimizda kadrlar tayyorlashning boskichma-boskich va uzluksiz tizimi vujudga keldi. Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari Milliy dasturda belgilangan yangi ta'lim konsepsiyasida muhim urin to'tadi. Kasb-hunar kollejlari yoshlarga 2-3 ta zamonaviy kasb-hunarlarni, kompyuterlarda ishlash sirlarini va kamida bitta chettilini urgatishni maksad kilib kuymokda. Shuning uchun xam bugun har tomonlama tayyorgarlikka erishgan yoshlarning ish urinlari uchun rakobat kuchayib, yoshlar esa xayotda o'z yo'llarini topishga intilmokdalar. Akademik litseylarda chuqur bilim berilayotganligi tufayli yoshlar o'rtasida bu bilim dargo^lariga intilish va ^avas tobora ortib bormokda. Yaqin kelajakda Respublikamizda 180 dan ziyod akademik litsey va 1600 ga yaqin kasb-^unar kollejlari vujudga kelib, ularda 15 milliondan ortik yoshlarning ta'lim olishi muljallangan. Ayniksa, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «U mumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limiga izchil utishni ta'minlashga doyr qo'shimicha chora-tadbirlar tugrisida» 2003 yil 29 oktyabrdagi 473-sonli karori aloxida axamiyatga ega, unda 2004-2009 yillarda O'zbekiston Respublikasi bo'yicha akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarini ishga tushirishning anik yunaltilgan dasturi belgilanishi ko'rsatilgan. Bu ishlarni amalga oshirish kizgin davom etmokda. Respublikamizning kenja viloyatlaridan biri — buyuk mutafakkir Alisher Navoiy nomi bilan ataluvchi viloyatda xam bu soxadagi ishlar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 1998 yil 24 fevraldagi 77-sonli karorini bajarish maqsadida viloyat xokimining 1998 yil 9 apreldagi K-98-sonli qarori bilan

viloyat xokimligi o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi boshkarmasi tashkil etilib, viloyat xokimligining mazkur qarori asosida viloyatdagi 16 ta o'quv yurti Boshkarma tasarrufiga utkazildi, bulardan 3 tasi «Qizilkumnodirmetalloltin» konserni ixtiyorida bo'lib, ikki tomonlama buysundirilgan xolda faoliyat ko'rsatmokda. Bugun Navoiy viloyati o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi boshkarmasi tasarrufida 25 ta ta'lim muassasalari bo'lib, shundan 18 ta kasb-hunar kollejlari «Ta'lim tugrisida» gi konun hamda Kadrlar tayyorlash milliy dasturida belgilangan ikkinchi sifat boskichi talablariga to'liq javob beradigan yangi o'quv texnika vositalari bilan jixozlangan. Viloyatdagi mavjud kollej va akademik litseylarda 21 mingdan ziyod yoshlar 79 mo'taxassislik yo'nalishlari bo'yicha taxsil olishayapti. Ularga 1568 nafar pedagog va muxandis – pedagoglar saboq berishayapti. E'tiborli jihati, ularning 158 nafarini oliy toifali o'qituvchilar, 12 nafarini fan nomzodlari va 3 nafarini fan doktorlari tashkil etadi. Shunga yarasha, bilim maskanlarida dars sifati va saviyasi ham ancha yuqori bulayapti.

1998-2004 yillarda viloyatda quyidagi kasb-hunar kollejlari va akademik litseylar ishga tushirildi:

№	O'quv yurti nomi	Quvvati 600/200 i	Yo'nalishi	Topshiril gan yili	Qurilishning turi
1	Navoiy konchilik		Sanoat	1998 yil	Rekonstruksiya
2	Karmana qishloq	600/100	Qishloq xo'jaligi	1999 yil 1999 yil	Rekonstruksiya
3	Konimex qishloq, xo'jalik kasb-hunar kolleji	600/100	Qishloq xo'jaligi		
4	Zarafshon sanoat kasb-hunar kolleji	600/250	Sanoat	1999 yil	Rekonstruksiya
5	Navoiy qurilish kasb- hunar kolleji	600/180	Qurilish	1999 yil	Rekonstruksiya
6	Navoiy tibbiyot kolleji	450/-	Tibbiyot	2000 yil	Rekonstruksiya
7	Xatirchi «Zaraf- shon» qishloqxo'jalik kasb- hunar kolleji	450/-	Qishloq xo'jaligi	2000 yil	Rekonstruksiya

8	Tomdi qishloq; xo'jalik k.x.k	600/100	Qishloq xo'jaligi	2000 yil R	Rekonstruksiya
9	Qiziltepa agroservis kasb- hunar kolleji	750/100	Qishloq xo'jaligi	2001 yil	Rekonstruksiya
10	Kiziltepa «Buxoro» qishloqxo'jalik k.x.k	750/100	Qishloq xo'jaligi	2001 yil	YAngi qurilish
11	Xatirchi agroser- vis kasb-hunar kolleji	950/-	Qishloq xo'jaligi	2001 yil	Rekonstruksiya
12	Navbaxor «Istiqlol» sanoat kasb-hunar kolleji	900/-	Sanoat	2002 yil	YAngi kurilish
13	Navoiy madaniyat va san'at kolleji	1100/300	Madaniyat va san'at	2002 yil	YAngi kurilish
14	2- Konimex qishloq; xo'jalik kasb-hunar kolleji	450/-	Qishloq xo'jaligi	2002 yil	YAngi kurilish
15	Nurota kyashlok xo'jalik kasb-hunar kolleji	450/-	Qishloq xo'jaligi	2002 yil	Rekonstruksiya
16	Xatirchi iktisodi- yot kasb-hunar kolleji	750/-	Iqtisod	2003 yil	Rekonstruksiya
17	Uchkudug sanoat kasb-hunar kolleji	450/-	Sanoat	2003 yil	Rekonstruksiya
,18	Navoiy tibbiyot kolleji	900/-	Tibbiyot	2003 yil	YAngi kurilish
	JAMI:	11950/ 1430			
Akademik litseylar					
1	NDPI huzuridagi akademik litsey	600/-	~	1998 yil	Rekonstruksiya
2	Zarafshon akade- mik litseyi	450/250	~	2001 yil	YAngi qurilish
	JAMI:	1050/250			

**2004-2009 yilgacha rejalashtirilgan akademik litsey
va kasb-hunar kollejlari**

№	O'quv yurtining manzili	Qurilshi rejalashtirilgan				Hozirgacha topshirildi	
		Quvvati	SHu jumla- dan rekonst- ruksiya	Soni	SHu jumla- dan ruksiya	Quvvati	Soni

1	Navoiy shahrida	2350/580	-	4	-	2750/680	4
2		1800/500	-	2	-	600/100	1
3		1050/200	-	2	-	600/250	1
4 5	Nurota tumanida	1200/450 4050/1200	750/150	4 9	-	1050/100	2
					1	450/-	1
6		3450/100	-	5	-	1500/200	2
7		2100/600	600/-	3	1	-	-
8		450/300	-	1	-	600/100	1
9	Navbahor tumanada	2850/200	-	6	-	900/-	1
10	Navoiy tumanida	1950/100		4	-	-	
11	Xatirchi tumanida	5650/750	1150/450	9	2	1400/-	2
	Jami:	26900/4980	2500/600	49	4	9850/1430	15

Akademik litseylar					
№	O'quv yurtining	Qurilishi rejalashtirilgan		Hozirgacha topshirildi	
		Quvvati	Soni	Quvvati	Soni
1	Navoiy shahrida	1425/600	2	600/-	1
2	Zarafshon shahrida	-	-	450/250	1
	Jami:	1425/600	2	1050/250	2

Bilim berishning muhim omili malakali kadrlarga bog'liq. Bu jihatdan mavjud malaka oshirish kurslari o'quv predmetiva kurs o'qituvchilarini bilim, ko'nikma va malaka mahoratinidoimiy yangilashda, ta'limning yangi, zamonaviy pedagogik va informatsion texnologiyalar hamda interaktiv uslublaridan foydalanib, o'quvchilarga bilim berishda, o'quv yurtlarida amaliy va nazariy darslarning barchasini dastur asosida olib borishlarida ijobiy natijalar bermokda. 1998-2003 yillar davomida oliy ta'lim muassasalari hamda Markaz va UMKXT ilg'or ta'lim muassasalari xuzurida tashkil qilingan doimiy harakatdagi malaka oshirish kurslarida 1192 nafar o'quv yurtlarining rahbar xodimlari, pedagog va pedagog-muhandislar o'z malakalarini oshirdilar. Bugungi kunda o'qituvchilarimizning xorijiy mamlakatlarda tajriba almashib kaytayotganliklari xam talabalarda ilmfanga nisbatan kizikish uygotib kelmokda. Ta'lim tizimini isloh qilish va ta'lim sifat samaradorligini oshirishda o'quv yurtlarini darslik va

o'quvqo'llanmalari bilan ta'minlash muhim ahamiyat kasb etmokda. Boshqarmatasarrufidagi o'quv yurtlarida 25 ta kutubxona, 23 ta o'quv zallari mavjud bo'lib, ular barcha umumta'lim fanlari va kasbiyta'lim mutaxassisliklari bo'yicha darslik va o'quvqo'llanmalar bilan ta'minlangan. Ayni paytda 320 ming nusxadan ziyod o'quvadabiyotlari mavjud. Umumta'lim fanlari, maxsus fanlar, badiiy, siyosiy adabiyotlar, uslubiy qo'llanmalar shular jumlasidandir. O'z navbatida, o'qituvchilar tomonidan tayyorlangan 620 dan ortik ma'ro'zalar matnlaridan darslar jarayonida samarali foydalanilmokda. Ushbu yurtlari sarmoyasidan tashqari topilgan mablaglar xisobidan esa 263 nomdagi kitoblar olindi. Ta'lim jarayoni kozok tilida olib borilayotgan Tomdi qishloqxo'jalik kasb-hunar kollejiga esa 1 million 630 ming sumlik darslik va badiiy adabiyotlar olib berildi. Mutaxassis tayyorlashning bosh omillaridan biri bu puxta ishlangan davlat ta'lim standartlari, o'quv reja, dastur va qo'llanmalar asosida tashkil etilgan o'quv jarayonidir. Shularni xisobga olib, o'quv dasturlari va darsliklar Davlat ta'lim standartlariga javob beradigan, kelajak avlodni Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalashga, mutaxassis sifatida shakllantirishda muhim o'rin tutadigan, o'quvchilarning fanlardan chuqur nazariy bilim olishlari va amaliy ko'nikmalarni xosil qilishlarini ta'minlash darajasida tayyorlangan. Viloyat tasarrufidagi ta'lim muassasalarining 1998-2003yillarda o'quv reja va dasturlar bilan ta'minlanishida pedagog va muhandis-pedagoglarimiz tomonidan yaratilgan uslubiy qo'llanmalar qo'llanilganligini ta'kidlash lozim.

2.2. Ta'lim va fan sohasidagi xalqaro hamkorlikning takomillashtirilishi

Butun Respublikada bo'lganidek, Navoiy viloyatida ham ta'lim tizimini rivojlantirish borsasida salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda.

1992 yil 29 iyunda Navoiy shahrida Xitoy Xalq Respublikasining Chjuchjou va Navoiy viloyatining Navoiy shahri o'rtasida o'zaro birodarlik shartnomasi imzolandi. Muzokara chog'ida ikki shahar o'rtasida o'zaro do'stlik aloqalarini

o'rnatish, ta'lim, sog'likni saqlash, turizm, sport va madaniy sohalarda hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'yish haqida kelishib olindi³⁰. Navoiy shahar delegatsiyasining 1996 yil 12 martdagi CHjuchjou shahriga tashrifi o'zaro ijtimoiy-iqtisodiy hamkorlikni yanada mustahkamladi. Ushbu uchrashuvda ikki shahar o'rtasida davom etib kelayotgan madaniyat, ta'lim, sport va sog'likni saqlash masalalaridagi hamkorlikni yangi pog'onalarga ko'tarish yuzasidan yangi shartnomaga imzo chekildi³¹.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisning IX sessiyasida Prezident Islom Karimov "Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyotining poydevori" sarlavhali ma'ruzasida Kadrlar tayyorlash tizimining shakllanishi va faoliyat ko'rsatishining asosiy tamoyillaridan biri va ta'lim sohasiga chet el investitsiyalari, xalqaro donorlik tashkilotlari va jamg'armalarining mablag'larini jalb etish zarurligini ta'kidlagan edi.³² Davlatimiz rahbarining ana shu ko'rsatmasiga asosan ta'lim muassalarining jihozlanishini jahon andozalariga yaqinlashtirish, ta'lim muassasalarining moddiy bazasini yaxshilash, muhandis – pedagoglarning malakasini oshirish masalalarini bugungi kun talabi darajasiga ko'tarish borasida maqsadli xorijiy loyihalar jalb qilinmoqda. Ta'limmuassalarining jihozlanishini jahon andozalari me'yorlariga yaqinlashtirish, muhandis-pedagoglarning malakasini bugungi kun talabi darajasiga ko'tarish maqsadida O'zbekiston Respublikasi hukumati Jahon Taraqqiyot Banki, Yevropa Tiklanish va Taraqqiyot Banki, Osiyo Taraqqiyot Banki kabi bir qator nufuzli institutlar bilan yaqindan hamkorlik aloqalari o'rnatib, mamlakatimiz ta'lim tizimiga xorijiy loyihalar jalb qilinmoqda. Keyingi yillarda xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlik o'rnatish borasida erishgan yutuqlarimizning samarasi o'laroq, yurtimizda xorijiy investorlar ishtirokida bir qancha investitsion loyihalar amalga oshirildi.

³⁰ O'zR MDA. Fond-M 2, 1-ro'yxat, 16 – ish, 1 - 2 varaq.

³¹ O'zR MDA. Fond-M 2, 1-ro'yxat, 16 – ish, 5 - 7 varaq.

³² Qurbonov SH., va boshqalar. Barkamol avlod orzusi ("Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" ni amalga oshirish borasidagi publitsistik mulohazalar). - Toshkent: SHarq, 1999. –B.23.

Navoiy viloyati xalq ta'limi tizimida ham xorijiy investitsiya dasturlarining bajarilishi bo'yicha bir qancha muayyan ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, Osiyo Taraqqiyot Bankining "Ta'lim sektorini rivojlantirish to'g'risida"gi UZB 1961 – sonli loyihasi asosida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi ijtimoiy kompleksi huzurida Osiyo Taraqqiyot Banki ishtirokida tashkil etilgan "Ta'lim sektorini rivojlantirish to'g'risida"gi 1961-sonli loyihasini amalga oshirish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, Oliy va o'rta-maxsus ta'lim vazirligi hamda Respublika "Mahalla" jamg'armalari bilan hamkorlikdagi 2003 yil 2 apreldagi buyrug'i va viloyat hokimining 2003 yil 20 apreldagi F-61 farmoyishi qabul qilindi. YUqorida qayd etilgan hujjatlarga asosan viloyat xalq ta'limi boshkarmasining 2003 yil 18 apreldagi 134-AF-sonli buyrug'i va shu asosida loyihani amalga oshirish chora-tadbirlari ishlab chiqildi. Viloyat xalq ta'limi tizimidagi o'rta va umumta'lim maktablari ushbu loyihaning manziliy ruyxatiga kiritildi³³. (18-ilova)

Loyiha "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" soha oldiga qo'yilgan vazifalarni amalga oshirish, sohani rivojlantirish va boshqarish, zamonaviy ta'lim muassasalari, o'quv jarayoni uchun zarur bo'lgan yangi jihozlar, ularni o'quv jarayonida qo'llash uchun zamonaviy ta'lim texnologiyalarni biladigan mutaxassis pedagoglarni tayyorlashda yordam ko'rsatish masalalariga qaratilgan.

Navoiy viloyati o'rta maxsus, kasb – hunar ta'lim boshqarmasi tasarrufidagi ta'lim muassasalarini ham xorijiy loyihalarga kiritish bo'yicha amaliy ishlar olib borilmoqda. Bunga quyidagilarni misol qilib ko'rsatish mumkin:

- Navoiy viloyati o'rta maxsus, kasb-hunar boshqarmasi tasarrufidagi 8 ta ta'lim muassasasi to'liq va 3 ta ta'lim muassasasi qisman Koreya hukumatining imtiyozli krediti hisobidan kompyuter sinflari, umumta'lim va maxsus fanlar buyicha o'quv-laboratoriya jihozlari, o'quv ustaxonalari uchun avtomobillarning trenajyorlari, turli-xil maketlar bilan jihozlangan. Koreya hukumati imtiyozli

³³ Navoiy viloyati xalq ta'limi boshqarmasi. 11-ish, 14-17 varaq

kreditining 2-fazasiga Xatirchi agroiqtisodiyot, Uchkuduk konchilik kasb-hunar kollejlari kiritilishi rejalashtirilgan.

- O'zbekiston Respublikasi va Yaponiya Xalqaro Hamkorlik Bankining UZB-P6 imtiyozli krediti asosidagi "o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini rivojlantirish" loyihasini amalga oshirish maqsadida 2001 yilning 31-yanvarida O'zbekiston hukumatiga 6,347 mln.yapon yenasi miqdorida kredit ajratildi. Mazkur loyiha O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'limi vazirligi, O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi markazi va YApon konsalting kompaniyasi YUNIKO Interneyshnl Korporeyshn o'rtasida tuzilgan shartnoma asosida amalga oshirildi. UZB-P6 loyihasiga kiritilgan 50 ta model kasb-hunar kollejlari uchun kasbga tayyorlashning 7 ta yo'nalish buyicha jami qiymati 51 mln.AQSH dollariga teng bo'lgan o'quv-laboratoriya jihozlari, qishloq xo'jaligi mashinalari va texnikalari bilan ta'minlandi.

- O'zbekiston Respublikasi va Osiyo Taraqqiyot Bankining UZB-1737 "O'rta maxsus, kasb – hunar ta'limini rivojlantirish" loyihasi bo'yicha Navoiy akademik litseyiga 89.689476,39 so'mlik, Tomdi qishloq xo'jaligi kollejiga 1.036.084 999 so'mlik, Konimex qishloq xo'jaligi kasb – hunar kollejiga 1.060.503 019 so'mlik o'quv-laboratoriya jihozlari, qishloq xo'jaligi texnikalari va mashinalari berilgan³⁴. O'zbekiston Respublikasi va Osiyo Tarraqqiyot Banki "O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini rivojlantirish" loyihasining 2-fazasiga Karmana qishloq xo'jalik kasb-hunar kolleji va Qiziltepa agroservis kasb-hunar kollejlari kiritilishi rejalashtirilmoqda.

- Boshqarma tasarrufidagi Navbaxor istiqolol sanoat kasb-hunar kolleji va Qiziltepa qishloq xo'jalik kasb-hunar kollejlari Polsha hukumatining imtiyozli kredit loyihasiga kiritilgan. Hozirgacha Navbahor istiqolol sanoat kasb-hunar kollejiga 148226965,6 so'm, Qiziltepa qishloq xo'jalik kasb-hunar kollejiga esa 269166278,2 so'mlik jihozlar berilgan.³⁵

³⁴ Navoiy viloyati o'rta maxsus, kasb-hunar boshqarmasi joriy arxiv materiallari

³⁵ Navoiy viloyati o'rta maxsus, kasb-hunar boshqarmasi joriy arxiv materiallari

- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 1 dekabrda
“Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida kasb-hunar ta’limini
rivojlantirishga ko’maklashish” loyihasi “Germaniya hukumatining imtiyozli
kreditdan foydalangan holda amalga oshirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi 563-
sonli qarorini ijrosini ta’minlash yuzasidan loyiha doirasida iqtisod qilingan
mablag’ga axborot kommunikatsion texnologiyalar sohasiga qo’shimcha Navoiy
kompyuter va axborot texnologiyalari kasb-hunar kolleji kiritilgan.

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 4 apreldagi “Belgiya
Qirolligi hukumatining foizsiz kreditini ishlatishda “Kichik biznes uchun kadrlar
tayyorlashda o’rta maxsus, kasb-hunar ta’limini rivojlantirishga ko’mak”
loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PQ-318-sonli qarori
hamda O’rta maxsus, kasb-hunar ta’limi markazining 2006 yil 17 apreldagi
“Belgiya Qirolligi hukumatining foizsiz krediti mablag’laridan samarali va
maqsadli foydalanishni ta’minlash to’g’risida”gi 58-sonli buyrug’iga binoan
Belgiya Qirolligi hukumatining foizsiz kreditiga Qiziltepa agroiqtisodiyot va
Nurota ijtimoiy-iqtisodiyot kasb-hunar kollejlari kiritilgan. Ushbu kasb-hunar
kollejlari “Kichik biznes uchun kadrlar tayyorlashda o’rta maxsus, kasb-hunar
ta’limini rivojlantirishga ko’mak” loyihasi asosida jihozlandi.

Bundan tashqari, loyiha doirasida xorijda rahbar-xodimlar, o’qituvchilar va
mutaxassislar malakasini oshirish borasida ham ijobiy ishlar amalga oshirilmoqda.
B.Sobirov, A.Mirvafojev, F.Muhammadqulov, U.Muhammedov,
E.Abdurahmonova, B. Erboyev, K.Saidov, A. Mirzayev, A.Dauletboyevlar
Avstraliyada, D.Qalmurodova, I.Norboyev, X.Eraliyev Indoneziya va
Avstraliyada, B.Erboyev, B.Bayanovlar Germaniyada ta’lim jarayoni bilan
tanishib, o’z malakalarini oshirdilar.

Xulosa qilib aytganda, mustaqillikka erishganimizdan so’ng
mamlakatimizda barcha sohalarda bo’lgani kabi ta’lim sohasida ham ijobiy
o’zgarishlar, samarali islohotlar amalga oshirilmoqda. Ma’lumki, ta’lim va tarbiya
har bir jamiyatning ajralmas qismi - madaniyati va taraqqiyotining asosiy mezon

hisoblanadi. Shu boisdan ham har qanday mamlakat istiqbolli rejalar tuzar ekan, avvalo, ta'lim va tarbiyaga e'tiborni kuchaytiradi.

Mamlakatimiz kelajagi so'zsiz bevosita kadrlarning qanchalik puxta tayyorlanishga bog'liq. Prezidentimiz aytganidek, "Biz oldimizga qanday muammoni yechish zarurati tug'ilmasin, gap oxir-oqibat, bari bir kadrlarga borib taqalaveradi. Mubolag'asiz aytish mumkinki, bizning kelajagimiz, mamlakatimiz kelajagi".³⁶

Yangicha fikrlaydigan, zamonaviy bilimlarni puxta egalagan barkamol, tashkilotchi va zukko kadrlarga ega bo'lish uchun, birinchi navbatda, ta'lim-tarbiya tizimni zamon ruhiga mos ravishda o'zgartirib borishni, uni hozirgi davr talabidan sira ortda qoldirib bo'lmasligini hayot taqozo etmoqda. Shu ma'noda, Navoiy viloyati xalq ta'lim muassasalarida "milliy model" asosida O'zbekistonning xalqaro andozalardagi zamonaviy taraqqiyotini ta'minlay oladigan dadil, mustaqil tafakkurli, malakali, bilimli mutaxassis, ayni paytda ichki insoniy sifatlari barq urib kamolotga yetgan kadrlarni tayyorlash maqsadida qilinayotgan ezgu ishlar davom etmoqda.

Ayni kezlarda viloyatda Navoiy davlat pedagogika instituti va Navoiy davlat konchilik institutlari faoliyat ko'rsatadi. Navoiy davlat pedagogika instituti tashkil topishi tarixi bunday: 1983 yil Navoiy shahrida Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika institutining Navoiy filiali tashkil etilgan edi. Unda o'sha vaqtda "Umumtexnika fanlari va mehnat ta'limi", "Milliy maktablarda rus tili va adabiyoti o'qituvchisi", "Boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi", "O'zbek tili va adabiyoti o'qituvchisi" ta'lim yo'nalishlarining kunduzgi, sirtqi va kechki bo'limlari faoliyatini boshlagan edi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1992 yil 28 fevraldagi Farmoni bilan ushbu filialga Navoiy davlat pedagogika instituti maqomi berildi. Bugungi kunda mazkur institut Respublikaning yetakchi pedagogika oliy o'quv yurtlaridan biriga, viloyatning ilm-fan, ma'naviyat va ma'rifat markaziga aylandi.

³⁶ Islom Karimov. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. Toshkent: O'zbekiston, 1999. - B. 18

Institut Rossiya Federatsiyasining M.Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti, Bolgariya Respublikasining Varna iqtisodiyot universiteti, Qozog'iston Respublikasi Olmaota industrial-pedagogika akademiyasi, Turkiston Qozoq-turk universiteti, Chimkentdavlat universiteti kabi xorijiy davlatlarning nufuzli oliy o'quv yurtlari va ilm-fan markazlari bilan pedagogik kadrlartayyorlash, o'qituvchilarning malakasini oshirish, qayta tayyorlash, o'quv-metodik ishlar yaratishda hamkorlik qilish, ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirish, seminar va konferensiyalar o'tkazish, hamkorlik loyihalarida ishtirok etish to'g'risida shartnomalar tuzgan. Oliy o'quv yurtlarini o'rtasidagi hamkorlik aloqalarini yanada kengaytirish, yangi hamkorlar topish yuzasidan samarali ishlar qilinmoqda. Bu borada Seul milliy pedagogika universiteti bilan o'rnatilgan hamkorlik aloqalarini misol qilishimiz mumkin. 2009 yilning 28 sentyabr kuni Koreya Respublikasining Seul shahrida Navoiy davlat pedagogika instituti va Seul milliy pedagogika universitetiga xizmat safarida natijasida Navoiy davlat pedagogika instituti va Seul milliy pedagogika universiteti o'rtasida o'zaro hamkorlik memorandum imzolandi.³⁷

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 1995 yildagi № 172 – sonli, O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligining mazkur yildagi № 145 sonli buyruqlari bilan O'zbekistonlik yoshlar Qozog'iston Respublikasi oliy o'quv yurtlariga o'qishga yuborilgan. Jumladan, pedagogika yo'nalishlari bo'yicha Navoiy davlat pedagogika institutidan Turkiston shahridagi xalqaro Qozoq-Turk universitetining matematika fakultetiga ikki nafar, qozoq tili va adabiyoti fakultetiga uch nafar, Chimkent jismoniy tarbiya pedagogika institutining biologiya fakultetiga ikki nafar, jismoniy tarbiya fakultetiga bir nafar, pedagogika va BTUga to'rt nafar, Olmaotadagi qozoq ayollar pedagogika institutining pedagogika-psixologiya fakultetiga uch nafar, jami o'n besh talaba Qozog'iston respublikasi oliy o'quv yurtlariga o'qishga yuborilgan.³⁸

³⁷ Navoiy davlat pedagogika instituti joriy arxiv materiallari.

³⁸ O'z.Resp. XTV joriy arxivi, № 1, № 384 – ish, 179 – 180 – varaqlar.

Institutda xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalar, uchrashuvlar tashkil etib kelinmoqda. Jumladan, 2009 yilning 11 noyabr kuni Navoiy davlat pedagogika institutida “Hindiston-buyuk mamlakat” mavzuida ilmiy-amaliy konferensiya bo’lib o’tdi. Konferensiyada Hindistonning O’zbekistondagi Favqulodda va muxtor elchisi, professor Said Manal Shoh Alqodiriy, La’l Bahodir Shastri nomidagi Hindiston – O’zbekiston milliy madaniy markaz direktori, doktor Nasir Raza Xon, shu markaz o’quvchisi Shari Sandep Vankhedelar qatnashdilar. Konferensiya yakunida institut professor-o’qituvchilarining hindistonlik mehmonlar bilan o’zaro hamkorlik munosabatlarini o’rnatish masalalari to’g’risida muzokara bo’lib o’tdi. Shuningdek, Germaniya Akademik Almashinuvining (DAAD) O’zbekistondagi Axborot markazi rahbari Manya Xussner (2008 yilda) va Katya Dooze xonimlar (2009 yilda) bilan “Germaniyadagi DAAD ning stipendial va grantlar to’g’risida” uchrashuvlar bo’lib o’tdi.

Hamkorlik doirasida “Iste’dod” jamg’armasi tanlovi asosida keyingi to’rt yil ichida A.Raxmonova va L.Qo’ldoshevlar Moskva davlat universitetida, I.Kamolov Leningrad davlat universitetida, N.Hotamova Malayziyaning Selanogor shahridagi Shoh Alam nomidagi MARA texnologiya universitetida, N.Murodova, T.Erdonov, B.Jumaboyev, F.Aminovalar “umumiy o’rta ta’lim fanlarini o’qitishda zamonaviy ta’lim metodlarini qo’llash”ni o’rganish yo’nalishlarida Germaniya oliygohlarida, A.Aminova Shanxay universitetida ta’lim olib yurtimizga malakali kadr bo’lib qaytdilar. Bundan tashqari, yevropa hamjamiyati TEMPUS dasturining VM T077A06 “EFGE: Universitet boshqaruvi bo’yicha kadrlarni tayyorlashni takomillashtirish” loyihasi doirasida O’.Sherqulov 2008 yilda Fransiyaning Grenobl shahridagi Per Mendes nomidagi universitetda malaka oshirish kurslarida qatnashdi.

Viloyatda konchilik va metallurgiya sanoati sohasidagi korxonalar hamda barpo etilayotgan yangi sanoat korxonalarini yetuk va malakali mutaxassis kadrlar bilan ta’minlash maqsadida 1963 yil Navoiy shahrida Toshkent politexnika

institutining kechki o'quv punkti ochildi. 1966 yil esa u ToshPIning umumiy texnika fakultetiga, 1981 yildan boshlab ToshPIning filialiga aylandi.³⁹

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 1990 yil 14 fevraldagi 9-qarori va 1990 yil 8 maydagi 249-buyrug'iga binoan Toshkent politexnika institutining Navoiy filiali Buxoro oziq-ovqat va yengil sanoat texnologiyasi instituti tarkibiga kiritildi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 1992 yil 29 may 229-buyrug'iga asosan, Navoiy filiali Toshkent davlat texnika universitetining tarkibiga kiritildi.

Respublika Vazirlar Mahkamasining 1995 yil 3 iyundagi Qarori bilan Respublikadagi barcha oliy o'quv yurt filliallari tugatilib, shu jumladan, Toshkent davlat texnika universiteti Navoiy filiali ham tugatilib, bu filial bazasida Navoiy texnika kolleji ochildi.

Kon-metallurgiya majmuining rivojlanishi va foydali qazilmalarni qazib olish hamda qayta ishlash sanoati uchun yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash zaruratidan kelib chiqib O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1995 yil 7 iyuldagi qarori bilan Navoiy davlat konchilik instituti tashkil etildi.

Hozirda institutda 5ta fakultet: Navoiy shahrida "Konchilik", "Kimyo-metallurgiya" va "Elektro-mexanika" fakultetlari, Zarafshon shahrida "Zarafshon umumtexnika" fakulteti, Olmaliq shahrida "Olmaliq kon-metallurgiya" fakulteti, 20 ta kafedra faoliyat yuritmoqda. 11 ta ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavriat, 5 ta ta'lim mutaxassisligi bo'yicha magistratura; 2 ta mutaxassislik bo'yicha aspirantura mavjud.

1996 yil 18 martda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining 078-s sonli buyrug'i bilan K.067.46.01 Ixtisoslashgan Kengash Navoiy davlat konchilik instituti huzurida tashkil etildi va hozirgi kunda ham faoliyat ko'rsatmoqda.

Navoiy davlat konchilik instituti Toshkent davlat texnika universiteti, Toshkent moliya instituti, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Buxoro oziq-

³⁹ Odinayeva Z. Qizilqum saxrosida bahor. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2004. -B.118

ovqat va yengil sanoat texnologiyasi instituti, Buxoro davlat universiteti kabi respublikamizning oliy ta'lim muassasalari bilan har tomonlama aloqalar o'rnatgan.

Ta'lim tizimini takomillashtirish va uni jahon andozalari darajasiga ko'tarish, malakali ilmiy-pedagogik kadrlarni tayyorlash, xorijiy ta'lim muassasalari bilan o'zaro manfaatli aloqalar o'rnatish borasida institutda salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. Xalqaro hamkorlik doirasida 2010 yil holatiga ko'ra, institut

Moskva davlat konchilik universiteti,

Moskva davlat po'lat va qotishmalar instituti,

Moskva davlat geologiya - qidiruv universiteti,

Ural davlat texnika universiteti,

Ural konchilik universiteti,

Ukraina milliy konchilik universiteti,

Tomsk politexnika universiteti,

Novosibirsk davlat texnika universiteti,

Rossiya Fanlar Akademiyasi Sibir bo'limiga qarashli Hisoblash texnologiyasi instituti,

Germaniyaning Frayberg konchilik akademiyasi,

SHanxay universitetining Xalqaro aloqalar kolleji,

Janubiy Koreyaning Dongguk Universitiy Gyongju Campus in South Korea,

Italiyaning Turin politexnika universiteti⁴⁰ kabi qator oliy ta'lim muassasalari bilan bitim va shartnomalar imzolagan. Ana shu shartnomalarga muvofiq Rossiya Federatsiyasining Moskva davlat konchilik universiteti, Moskva davlat po'lat va qotishmalar instituti, Moskva davlat geologiya - qidiruv universiteti, Ural davlat texnika universiteti, Ural konchilik universitetining yetakchi professorlari har yili institut talabalariga ma'ruzalar o'qish uchun muntazam taklif qilinadi. SHuningdek, malakali yosh kadrlarni tayyorlash maqsadida institut Rossiya va Germaniyaning yetakchi oliy o'quv yurtlariga o'z magistrant va aspirantlarini yuborishgan. Xorijda ilm olayotgan yoshlarga L.Ataqulov (kon

⁴⁰ Navoiy davlat konchilik instituti joriy arxiv materiallari. 6- yig'ma jild

elektromexanikasi), A.Qurolov(ochiq konchilik ishlari),M.Ro'ziyev(kon elektromexanikasi), T.Xayitov (yer osti kon ishlari), A.Ishmov(Geotexnika), N.Abduezizov (kon elektromexanikasi), A.Qarshiboyev(kon elektromexanikasi), I.Egamberdiyev(mashinalar texnologiyasi va remonti), SH.Zaripov(kon elektromexanikasi), R.Normurodovlarni (metallurgiya) misol qilishimiz mumkin

Navoiy kon-metallurgiya kombinati hamkorligida institutda konchilik sohasini yuksaltirish masalalariga bag'ishlangan ilmiy konferensiyalar Moskva va Navoiy shaharlarida Rossiya Fan va ta'lim vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Oliy va O'rta maxsus ta'lim vazirligi O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi, Patris Lumumba nomidagi Rossiya Xalqlar do'stligi universiteti, Navoiy konchilik instituti hamkorligida har ikki yilda muntazam o'tkazish an'anaga aylangan. Bunday xamkorliklar ta'lim samaradiligining rivojlanishiga, talabalar bilim salohiyatining oshishiga yordam bermoqda. SHu bilan birga, talaba yoshlar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Iste'dod" jamg'armasi grantlari sovrindorlari sifatida har yili bir qancha mamlakatlarining oliy o'quv yurtlarida malaka oshirib kelmoqdalar. 2004-2006 yillarda institutning 21 nafar professor-o'qituvchilari jamg'arma granti sovrindorlari bo'lishdi va Rossiya, Xitoy, Hindiston kabi davlatlarning yetakchi oliy ta'lim muassasalarida malaka oshirib qaytishdi. Keyingi yillarda bu ko'rsatkich ancha ortgan. Prezident Islom Karimovning 2010 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011 yilga mo'ljallangan eng muhim ustuvor yo'nalishlarga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasida 2011-2015 yillarda Oliy o'quv yurtlarini rivojlantirish dastur tayyorlanishi va ushbu hujjat yaqin vaqt ichida qabul qilinishi ta'kidlanadi. Bu dasturdan ko'zlangan asosiy maqsad - oliy ta'lim muassalarining moddiy-texnik bazasini yanada mustahkamlash, ularni zamonaviy o'quv, laboratoriya va ilmiy uskunalar bilan jihozlash, pirovardida o'quv dasturlarini takomillashtirish, tobora tezlashib borayotgan zamon talablariga javob beradigan kadrlarni tayyorlashning sifatini yaxshilash masalasiga yangicha yondashuvlarni hayotga tatbiq etishdir.

2.3. O'zbekiston ta'lim tizimi jahon nigohida

2012 yilning yilning 17 fevralida Toshkentda Prezidentimiz Islom Karimov tashabbusi bilan “YUksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash – mamlakatni barqaror taraqqiy ettirish va modernizatsiya qilishning eng muhim sharti” mavzusida xalqaro konferensiya tashkil etildi. Anjumanda ko'plab yirik xalqaro tashkilotlar va moliya institutlari, jumladan, BMT, Osiyo taraqqiyot banki, Jahon banki, Islom taraqqiyot banki vakillari, Buyuk Britaniya, Germaniya, Italiya, Xitoy, AQSH, Janubiy Koreya, YAponiya, Rossiya kabi dunyoning 48 davlatidan ta'lim tizimi rahbarlari, olimlar hamda mutaxassislar ishtirok etib, uzluksiz ta'lim sohasini rivojlantirish va yosh avlodni barkamol tarbiyalashning milliy modelini yaratishda O'zbekiston tajribasini o'rgandilar. Haqiqatan ham, yurtimizda faol,

intiluvchan, iqtidorli va yuksak ma'naviy fazilatalarga ega, zamonaviy bilim hamda kasblarni chuqur egallagan, bugungi va ertangi kunimizning hal qiluvchi kuchi bo'lgan yoshlarni voyaga yetkazish uchun barcha shart-sharoit va imkoniyatlar yaratilgan.

Ta'limni rivojlantirishga yo'naltirilgan xorijiy texnik yordam hajmi o'tgan davrda 500 million dollardan oshib ketdi. Osiyo taraqqiyot bankining 290 million dollar mablag'i Janubiy Koreya hukumatining 110 milliondan ortiq, Jahon bankining 33 million, OPEK fondi, Saudiya fondi, Islom taraqqiyot bankining 42 million, Germaniya hukumatining "KFV" banki orqali yo'naltirilgan qariyb 20 million va boshqa donorlarning 100 million dollardan ortiq yordami shular jumlasidandir. Prezidentimiz Islom Karimov ta'kidlaganidek, "Bizning mamlakatimizda amalga oshirilayotgan dastur bu – boshqa modellarni qandaydir takrorlash yoki ulardan nusxa ko'chirish emas, aksincha, birinchi navbatda, rivojlangan demokratik davlatlarda to'plangan tajribani o'zida mujassam etgan va ayni paytda shiddat bilan o'zgarib borayotgan hozirgi zamon talablarini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan dasturdir"⁴¹

O'zbekistonda ta'lim sektorini moliyalashtirishda byudjet va xususiy manbalar bilan bir qatorda moliya institutlari, xorijiy, xalqaro donorlar tomonidan ko'rsatilayotgan tashqi yordam ham ahamiyatlidir. 2000 yildan 2007 yilgacha ushbu yordam doirasida 1 milliard AQSH dollaridan ortiq umumiy qiymatdagi 122 ta loyiha tatbiq etildi.

2012 yil 16-17 fevral kunlari Toshkentda o'tkazilgan xalqaro konferensiya uzluksiz ta'lim va yosh avlodni barkamol etib tarbiyalashning milliy modelini yaratishda O'zbekiston tajribasini o'rganishga bag'ishlandi. Unda Kadrlar tayyorlash milliy dasturi (1997) deb nomlangan Ta'lim sohasini isloh qilish dasturi mamlakatda yangi jamiyat qurishning bosqichma-bosqich va tadrijiy prinsiplariga asoslangan iqtisodiy va siyosiy islohotlarning O'zbekiston tanlangan o'zbek modelining ajralmas tarkibiy qismi ekani alohida ta'kidlandi.

⁴¹ "Xalq so'zi", 2012 yil 18 fevral.

Jahondagi taraqqiy topgan demokratik mamlakatlar tajribasini umumlashtirgan va ayni paytda boshqalarning modellarini takrorlamagan holda, ulardan nusxa qilib ko'chirilmagan ushbu dastur o'tmishda majburan singdirilgan komunistik mafkuraning qolip va andozalaridan butunlay voz kechish, odamlarning, birinchi navbatda, unib-o'sib kelayotgan avlodning ongida demokratik qadriyatlarni mustahkamlashga qaratilgan bo'lib, hayotda o'z fikriga, o'z yo'liga va qat'iy grajdanlik pozitsiyasiga ega bo'lgan, har tomonlama yetuk va mustaqil fikrlaydigan shaxsni shakllantirishni maqsad qilib qo'ygan.

Konferensiya qatnashchilari O'zbekistondagi qator umumta'lim maktablari, kasb-hunar kollejlari va akademik litseylar, oliy ta'lim muassasalarida bo'lib, ularning faoliyati bilan tanishdi. Ular yurtimizda Prezidentimiz boshchiligidagi yosh avlodning har tomonlama barkamol voyaga yetishi yo'lida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar va ularning samarasiga yuksak baho berdilar.

Konferensiya ta'lim tizimining umumiy o'rta ta'limini rivojlantirish, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi samaradorligini oshirish, uning mehnat bozori bilan aloqasini kuchaytirish, oliy ta'lim tizimini yuksaltirish, ta'lim jarayoniga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, oliy ta'lim tizimi hamda ilm-fan hamkorligini kuchaytirish va uzluksizligini ta'minlash, ta'lim jarayonida madaniyatning o'rni kabi asosiy masalalar bo'yicha tajriba almashish imkonini berdi.

E'tiborli jihati shundaki, konferensiya ishtirokchilari har kuni o'zlarining yangi taassurotlarini hayrat bilan so'zlab berdilar. Masalan, Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida yaratilgan imkoniyatlar AQSH, Fransiya, Germaniya, Italiya, Buyuk Britaniya, Latviya, Janubiy Koreya, Yaponiya, Hindiston, Malayziya, CHexiya kabi o'nlab mamlakatlar ta'lim tizimi vakillarining havasini keltirdi. Mehmonlar TDIUda 3200 o'ringa mo'ljallangan yangi bosh o'quv binosi eng zamonaviy kompyuter texnologiyalari bilan jihozlangan va internet tizimiga ulangan auditoriyalar, 1 milliondan ortiq kitob fondiga ega bo'lgan axborot-resurs markazi faoliyati bilan tanishib, ular o'z me'moriy qiyofasi hamda texnik ta'minotga ko'ra dunyodagi eng yaxshi oliy o'quv yurtlaridan aslo qolishmasligiga

ishonch hosil qilishdi. Bundan tashqari, universitetda ham elektron, ham kitob shaklida bakalavriat va magistratura fanlaridan yaratilgan 541 nomdagi o'quv-uslubiy majmuani yuqori baholadilar. O'qituvchilarimizning ta'lim jarayonida interfaol uslublardan keng foydalanishayotgani, talabalarimizning qobiliyati, bilimi, ko'plab xorijiy tillarda erkin so'zlasha olishi ham ularda katta taassurot uyg'otdi.

Xalqaro ilmiy-amaliy koferensiya ishtirokchilari mamlakatimizning ta'lim tizimini isloh qilish borasidagi tajribasini o'rganib, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning nutqida bayon etilgan ta'lim tizimini isloh qilishga oid prinsip va yondashuvlarni to'liq qo'llab-quvvatladilar:

1. XXI asr – intellektual tafakkur asrida inson kapitaliga investitsiya yo'naltirishni ustuvor vazifa sifatida tanlagan mamlakatlarga yuksak tarraqiyotga erishishi mumkin. Faqat shunday jamiyatgina zamonaviy tahdid va mummolarni yengib o'tishga qodir bo'ladi⁴².

2. Bugungi kunda har qanday mamlakatning jahon bozorida raqobatdoshligi nafaqat tabiiy resurslarning mavjudligiga, balki, birinchi navbatda, zamonaviy muntazam yangilanib turadigan texnologiyalarni o'zlashtirishga qodir, yuksak bilimli va intizomli ishchi kuchini muntazam tayyorlab borishga bog'liq. Bunday ishchi kuchisiz iqtisodiyotning yuksak texnologiyalarga asoslangan zamonaviy tuzilmasini shakllantiradigan yangi ishlab chiqarishlarni tashkil etib bo'lmaydi.

3. Har qanday davlat o'zining intellektual va ma'naviy salohiyatini yuksaltirishdan manfaatdor bo'lmog'i kerak.

4. Milliy va umuminsoniy qadriyatlarni umumlashtirgan holda, zamonaviy bilim, intellektual salohiyat va ilg'or texnologiyalarga ega bo'lgan odamlargina rivojlanishda o'z oldiga qo'ygan strategik maqsadlarga erisha oladi.

5. Jamiyatda bilimli, ma'lumotli va yuksak intellektga ega bo'lgan odamlarning mavqeini oshirish ta'lim tizimini isloh etishning asosiy prinsiplaridan biri bo'lishi lozim.

⁴² “Yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash – mamlakatni barqaror taraqqiy ettirish va modernizatsiya qilishning eng muhim sharti” mavzusidagi xalqaro konferensiyaning yakuniy hujjati-rezolyutsiyasi.// “Xalq so'zi”, 2012 yil 22 fevral.

6. Ta'lim sohasida, zamonaviy kadrlar talab qilinadigan tarmoqlar vakillari o'rtasida xalqaro hamkorlikni muntazam rivojlantirish zarur.

Xalqaro konferensiya ishtirokchilari O'zbekistonning quyidagi yo'nalishlar bo'yicha tajribasini alohida e'tirof etib, uni chuqur o'rganish lozimligini ta'kidladilar:

1. Maktab ta'limi mamlakatda yashayotgan asosiy millatlar ehtiyojlarini inobatga olgan holda 7 tilda – o'zbek, qoraqalpoq, rus, qozoq, qirg'iz, tojik va turkman tillarida olib borilmoqda.

2. 9+3 sxemasi bo'yicha umumiy bepul ta'lim tizimining joriy etilishi. Bunda har bir bitiruvchi majburiy ta'limdan so'ng o'z xohishiga ko'ra, oliy o'quv yurtlarida o'qishni davom ettirishi va bakalavr hamda magistr darajasini olishi mumkin.

3. Har bir kollejning malakali ishchi kuchiga buyurtmalari bo'lgan muayyan korxonalar bilan yaqin aloqani yo'lga qo'ygan.

4. Respublikaning har bir o'quv yurtida optik tolali aloqa liniyalari asosida qurilgan yagona Ziyonet axborot ta'lim tarmog'iga ulangan axborot-resurs markazlari tashkil etilgan.

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti rahnamoligida tashkil etilgan maxsus jamg'arma bazasida bolalar sportini rivojlantirishga ustuvor e'tibor qaratilgan.

Xalqaro konferensiya ishtirokchilari O'zbekistonning ta'lim tizimini rivojlantirish borasidagi tajribasini o'rganish bo'yicha tinglangan va muhokama etilgan ma'ruzalarni hisobga olgan holda, quyidagilarni tavsiya etadilar:

1) Kadrlar tayyorlash sifatini ularning raqobatdoshligi va kadrlarga bo'lgan ehtiyojni oshirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratgan holda, milliy ta'lim tizimlarini modernizatsiya qilish;

2) O'zbekiston misolida o'qituvchi va murabbiylar kunini umumhalq bayrami sifatida joriy etish imkoniyatlarini o'rganish;

3) Uzluksiz ta'lim tizimini joriy etish munosabati bilan "Bilim – butun hayot davomida har bir inson uchun" konsepsiyasiga asoslangan Kadrlar tayyorlash milliy dastrini joriy etish borasida O'zbekiston tajribasini o'rganish;

4) Aholining, shu jumladan, olis qishloqlardagi bolalar va yoshlarning barcha bosqichda bepul umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini olish imkoniyatini kengaytirish;

5) Ta'lim tizimini takomillashtirish va uni moliyalash manbalarini kengaytirish... Har bir ta'lim sohasini rivojlantirish va isloh qilishga yalpi ichki mahsulotning 10-12 foizi va Davlat byudjeti xarajatlarining 35 foizini yo'naltirayotgan O'zbekiston tajribasini o'rganish;

6) Ta'lim tizimini isloh qilishda O'zbekistonning o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimini tashkil etish, ta'lim muassasalarining muayyan korxonalar bilan yaqin aloqalarini yo'lga qo'yishdagi tajribasini hisobga olish;

7) Ta'lim tizimining ta'lim, kasb tayyorgarligi, ilm-fan, madaniyat va sport barkamol yosh avlodni tarbiyalashning muhim tarkibiy qismlari hisoblanadigan kompleks, keng qamrovli omil ekanini nazarda tutish;

8) Eng yaxshi xorijiy oliy ta'lim muassasalari filiallarini tashkil etish bo'yicha O'zbekistonda faol qo'llanib kelinayotgan amaliyotni rivojlantirish;

9) Iqtisodiyot tarkibidagi o'zgarishlar va jamiyatning muhim ehtiyojlariga muvofiq, o'qituvchi kadrlarni tayyorlash va ularning malakasini uzluksiz oshirib borish tizimini yaratish, moddiy va ma'naviy rag'batlantirishni kuchaytirgan holda, o'qituvchilik kasbining nufuzini oshirish;

10) O'qitishning barcha bosqichlarida o'quv dasturlarining izchilligi va o'zaro muvofiqligini ta'minlash;

11) Xalqaro standartlar, zamonaviy ilm-fan yutuqlari inobatga olgan holda, o'quv dasturlari, darslik va o'quv qo'llanmalarni, o'qitish metodikasini muntazam takomillashtirish;

12) ta'limning barcha bosqichlarida tabiiy-ilmiy va muhandislik fanlarini o'qitishning amaliy xususiyatga ega bo'lgan tizimini joriy etish;

13) o'qitishning yangi texnologik shakl va uslublarini yaratish;

14) O'qitishning barcha bosqichlarida xorijiy tillarni o'rganishni kengaytirish, yoshlarning xalqaro mehnat bozori sharoitlariga moslashishini ta'minlash;

Xalqaro konferensiya ishtirokchilari, xalqaro moliya institutlari, donor mamlakatlarga quyidagilarni tavsiya etadi:

1. Rivojlanayotgan mamlakatlarga barcha bosqichdagi ta'lim tizimlari, jumladan, oliy ta'lim tizimini rivojlantirishga texnik ko'maklashish uchun grantlar hamda imtiyozli kreditlar ajratish amaliyotini kengaytirish.

2. Ta'lim tizimini, jumladan, xalqaro konferensiyalar, simpoziumlar, seminarlar o'tkazish va tajriba orttirish, shuningdek, maqolalar chop ettirish orqali rivojlantirishda jahondagi eng ilg'or tajribalarni ommalashtirishga ko'maklashish.

3. Rivojlanayotgan mamlakatlarga dunyoning taraqqiy etgan davlatlaridagi o'quv yurtlari va ilmiy muassasalar bilan hamkorlik munosabatlarini o'rganishga ko'maklashish.⁴³

XULOSA

2012 yil 19 yanvarda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011 yilning asosiy yakunlari va 2012 yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor vazifalariga bag'ishlangan majlisida Prezidentimiz Islom Karimov «2012 yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi» mavzusidagi ma'ruzasida ta'lim sohasini rivojlantirish bo'yicha amalga oshirgan ishlar haqida alohida to'xtaldi. O'tgan yillar mobaynida yurtimizda umumiy o'rta ta'limdan boshlab o'rta maxsus, kasb-hunar va oliy ta'limgacha bo'lgan bo'g'inlarda chuqur bilim va puxta kasb-hunar tayyorgarligiga ega bo'lgan yosh avlodni tarbiyalash jarayonini o'z ichiga olgan yaxlit uzluksiz ta'lim tizimini shakllantirish ishlari izchil davom ettirildi.

Darhaqiqat, mamlakatimiz o'z mustaqilligini qo'lga kiritganidan keyingi 20 yil ichida xalqimiz o'zining mard va donishmand rahbari boshchiligida asrlarga tatigulik ulkan ishlarni amalga oshirdi. Mamlakatimizda siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy hayot va milliy ma'naviyat sohalarida tub islohotlar tufayli yurtimizda obod va erkin farovon hayot asoslari barpo etildi.

⁴³ «Xalq so'zi», 2012 yil 22 fevral.

Mamlakatimizda ta'lim tizimini rivojlantirishga qaratilgan uning me'yoriy-huquqiy asoslari quyidagi hujjatlarda belgilab berildi hamda ular bazasida eng muhim yo'nalish va natijalar ijrosi ta'minlandi.

Prezidentimiz Islom Karimov O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi IX sessiyasidagi (1997 yilda 29 avgust) «Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori» mavzusidagi nutqida 1991-1997 yillar davomida mamlakatimizda amalga oshirilgan ta'lim-tarbiya tizimidagi islohotlarni tanqidiy baholadi. Sobiq ittifoq davrining oxirida 11 yillik o'quv tizimiga o'tdik. 11 yillik tizim tarkiban 3 qismga bo'linadi: boshlang'ich ta'lim – 4 yil, to'liqsiz o'rta ta'lim – 9 yil va nihoyat, 2 yillik to'liq o'rta ta'lim... Bizga bitiruvchilar emas, maktab ta'limi va tarbiyasini ko'rgan shaxslar kerak... Demokratik jamiyatda bolalar, umuman, har bir inson erkin fikrlaydigan etib tarbiyalanadi.

Prezidentimiz 9-sinfni tugatayotganlarning keyingiyo'li – taqdiri qanday bo'lishi zarurligini puxta asoslab berdi. «Respublikamizda taxminan 5million 200 ming maktab o'quvchisidan 9-sinfni bitirayotganlar 450ming nafar bolani tashkil qiladi... Ma'lumotlarga qaraganda, ularning 250ming nafarga yaqini, ya'ni 55 foizi 10-sinfda o'qishni davom ettirar ekan, taxminan 100ming nafari hunar-texnika yoki maxsus o'quv yurtlariga kirishi mumkin. Qolganlari esa - gap 100ming nafar bolalarimizhaqida ketyapti – hisob-kitob bo'yicha, umuman ko'chada qolmoqda». SHu boisdan ham 1997yil 29avgustda bevosita Prezidentimiz tashabbusi bilan «Ta'lim to'g'risida»gi qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturining qabul qilinganida katta ma'no bor. Qabul qilingan dasturga muvofiq, mamlakatimizda 9+3 sxemasi bo'yicha 12 yillik umumiy majburiy bepul ta'lim tizimi joriy etildi.

Mavjud ta'lim-tarbiya tizimini tubdan isloh qilish, uni zamon talablari darajasiga ko'tarish, milliy kadrlar tayyorlashning yangi tizimini barpo etish, kelajak uchun barkamol, salohiyatli avlodni tarbiyalash maqsadida ushbu farmon bilan «Ta'lim to'g'risida»gi qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturni hayotga tatbiq etish ishlari davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi etib belgilandi.

O'zbekistonda ta'lim respublika ijtimoiy-iqtisodiy, g'oyaviy-madaniy hayotining eng muhim yo'nalishidir. Ta'limning huquqiy asoslari mamlakatimiz

Konstitutsiyasi, «Ta'lim to'g'risida»gi qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturida o'z aksini topgan.

Kadrlar tayyorlash milliy modelining asosiy tarkibiy qismlari bo'lgan shaxs, davlat va jamiyat, uzluksiz ta'lim, fan, ishlab chiqarishdan iborat bir butun tizim yuzaga keldi.

Bundan 15 yil oldin qabul qilingan, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi deb nom olgan Ta'lim sohasini isloh qilish dasturi mamlakatimizda yangi jamiyat qurishning bosqichma-bosqich va tadrijiy rivojlanish prinsipiga asoslangan iqtisodiy va siyosiy islohotlarning biz tanlagan «o'zbek modeli» - o'z taraqqiyot yo'limizning tarkibiy qismidir... Bu dastur hayotda o'z fikriga, o'zining qarashlari va qat'iy fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lgan, har tomonlama yetuk va mustaqil fikrlaydigan shaxsni shakllantirishni maqsad qilib qo'ydi. YOshlarni jismonan chiniquqan, mard, bilimli, qat'iyatli, ona Vatanini himoya qila oladigan avlod sifatida kamol toptirish uchun ularning jismonan rivojlanishga xizmat qiladigan maskanlarni barpo etish va rivojlantirish talab etiladi. Bugungi kunda jismoniy tarbiya va sport sohasida, ayniqsa, bolalar sportini yanada rivojlantirish, har bir shahar va qishloqda zamonaviy talablarga javob beradigan, zarur anjomlar bilan jihozlangan sport maydonchalari, inshoot va majmualarni barpo etish borasida katta ishlar qilinayotgani yoshlarimiz oldida keng imkoniyatlar ochilishiga asos bo'ldi. Aytish joizki, istiqloq yillarida bu sohaga aloxida e'tibor berilib, uning moddiy-texnik bazasi mustahkamlandi, yurtimizda 1 ming 200 dan ziyod yangi sport inshooti barpo etildi va 260 ming nafardan ziyod bola sportning ko'plab turlari bilan muntazam shug'ullanishi uchun imkoniyat yaratildi.

Jahon e'tirofiga sazovor bo'lgan uch bosqichli - **«Umid nihollari»**, **«Barkamol avlod»**, **«Universiada»** respublika sport musobaqalari orqali bolalar va o'smirlar o'rtasida sportning ommaviyligi ta'minlandi. Xususan maktab o'qituvchilari o'rtasida **«Umid nihollari»** sport musobaqalari 2012 yil 23-25 may kunlari Navoiy viloyatida ko'tarinki ruhda o'tkazildi va unda viloyat terma jamoasi faxrli 2 – o'rinni egalladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov tashabbusi bilan Toshkentda 2012 yil 16-17 fevral kunlari o'tkazilgan "Yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash – mamlakatni barqaror taraqqiy ettirish va modernizatsiya qilishning eng muhim sharti" mavzusidagi xalqaro konferensiyada YUrtboshimizning O'zbekistonda Ta'lim sohasini isloh qilish, yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash bo'yicha amalga oshirilayotgan dasturning asosiy maqsad va vazifalari, mazmun-mohiyati qisqacha bayon etilgan nutqi xalqaro konferensiya ishida muhim ahamiyat kasb etdi.

Xulosa qilib shuni e'tirof etish kerakki, mamlakatimizda qabul qilingan barcha ijtimoiy dasturlar Vatan ravnaqi, yurt tinchligi va xalq farovonligini ta'minlashga qaratilgan. "Barkamol avlod yili" munosabati bilan qabul qilingan Davlat dasturi ham mazmun-mohiyati va ahamiyatiga ko'ra, davlatimizning yuksak maqsadlarga erishishining ishonchli kafolati bo'lib, o'z mustaqil fikriga ega, mustahkam irodali, chuqur bilimli, hech kimdan kam bo'lmagan barkamol avlodni voyaga yetkazish yo'lida dasturilamal bo'lib xizmat qilmoqda.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO'XATI

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2010
2. "Ta'lim to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. Toshkent, 1997-yil. 9-son.
3. "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Axborotnomasi. Toshkent, 1997-yil. 11-12-son.
3. Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. 1-jild. - Toshkent: O'zbekiston, 1996. – 364 b.
4. Islom Karimov. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori.- Toshkent: SHarq, 1998. 3-19-b.
5. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va faravon hayot – pirovard maqsadimiz. 8-jild. - Toshkent: O'zbekiston, 2000. – 528b.
6. Karimov I.A. Vatan ravnaqi uchun har birimiz ma'sulmiz. 9-jild. - Toshkent: O'zbekiston, 2001. – 432 b.

7. Karimov I.A. Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak. 10-jild. - Toshkent: O'zbekiston, 2002. - 430 b.
8. Karimov I.A. Jahon inqirozining oqibatlarini yengish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish va taraqqiy topgan davlatlar darajasiga ko'tarish sari. 18-jild. - Toshkent: O'zbekiston, 2010. – 264 b.
9. Karimov I.A. Demokratik islohatlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish – mamlakatimiz taraqqiyotining asosiy mezonidir. 19-jild. - Toshkent: O'zbekiston, 2011. – 360 b.
10. Karimov I.A. YUksak ma'naviyat - yengilmas kuch. - Toshkent: Ma'naviyat, 2008. –176 b.
11. Karimov I. A. O'zbekiston mustaqillika erishish ostonasida. – Toshkent: O'zbekiston, 2011.
12. Karimov. 2012 yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi // O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2011 yilning asosiy yakunlari va 2012 yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi // T.: O'zbekiston, 2012, 15-bet.
13. Prezidentimiz Islom Karimovning “Yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash mamlakatni barqaror taraqqiy ettirish va modernizatsiya qilishning eng muhim sharti” mavzusidagi xalqaro konferensiyaning ochilish marosimidagi nutqi// Xalq so'zi, 2012 yil 18 fevral.
14. Abu Nasr Farobiy. Fozil odamlar shaxri. Toshkent, 1998.
15. Inoyatov S., Rajabov Q., Ibragimov X. Navoiy-sahro bag'ridagi mo''jiza shahar.-Toshkent:O'zbekiston, 2008. - 240 b. ¹ Yo'ldoshev J. Ta'limimiz istiqloli yo'lida. – Toshkent: SHarq, 1996. 4-5-bet.
16. Yo'ldoshev J. Ta'limimiz istiqloli yo'lida. – Toshkent: SHarq, 1996.
17. Sobirov B. Ta'lim tizimi takomillashmoqda // O'zbekiston iqtisodiy axborotnomasi. - Toshkent, 2008. № 6 son. - B. 41-43.
18. O'zbekiston Milliy ensklopediyasi. 6-jild. - Toshkent: O'zbekiston Milliy ensklopediyasi Davlat nashriyoti, 2003. -704 b

19. O'zbekistonning yangi tarixi. Uchinchi kitob. Mustaqil O'zbekiston tarixi. - Toshkent: SHarq, 2000. - 560 b.
20. Qurbonov SH. Barkamol avlod orzusi ("Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" ni amalga oshirish borasidagi publitsistik mulohazalar). - Toshkent: SHarq, 1999. - 184 b.
21. Quyi Zarafshon vohasi ijtimoiy, madaniy, ma'naviy hayot tarixi. - Toshkent: Fan, 2005. - 132 b.
22. Quyi Zarafshon vohasi ijtimoiy, madaniy, ma'naviy hayot tarixi (ikkinchi kitob). - Toshkent: Fan, 2007. - 256 b.
23. Quyi Zarafshon vohasi ijtimoiy, madaniy, ma'naviy hayot tarixi (uchinchi kitob). - Navoiy, 2008. - 176 b.
24. // "Xalq so'zi", 2005 - 2012 yillar
25. // "Ma'rifat", 2008-2012 yillar
26. // Do'stlik bayrog'i. 1992 – 2011 yillar.
27. // Znamiya drujby. 1992 – 2011 yillar.
28. www.gov.uz–O'zbekiston Respublikasi Davlat hokimiyati portali
29. www.press-service.uz–O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Matbuot xizmati rasmiy sayti
30. www.navoiy.uz. – Navoiy viloyati hokamligi rasmiy sayti
31. www.uza.uz. – O'zbekiston Respublikasi Axborot agentligi rasmiy sayti.
32. http://uz.wikipedia.org/wiki/Navoiy_viloyati.

**Navoiy davlat pedagogika instituti Tarix fakul'teti tarix o'qitish
metodikasi yo'nalishi talabasi Sharopov Sheralining "O'zbekiston
Respublikasi ta'lim tizimidagi islohatlar: yutuq va istiqboli" (Navoiy viloyati
misolida) mavzusidagi bitiruv malakaviyishiga**

ILMIY RAHBAR XULOSASI

Mustaqillikka erishganimzdan so'ng mamlakatimizda barcha sohalarda bo'lgani kabi ta'lim sohasida ham ijobiy o'zgarishlar, maqsadli islohotlar amalga oshirilmoqda. Ma'lumki, ta'lim har bir jamiyatning ajralmas qismi, madaniyati va rivojlanishning asosiy mezonidir. Har qanday mamlakat istiqbolli rejalar tuzar ekan, avvalo ta'limga etiborni kuchaytiradi. Kelajagi buyuk davlat, buyuk insonlar, fuqorolarimizni ma'lumotligiga, madaniyatiga, bunyodkorligiga tayanadi. Zero, eski ta'lim-tarbiya asosiga yangi jamiyat qurib bo'lmaydi. Istiqlol yillarida mamlakatimizda ta'lim tizimini isloh qilish, milliy kadrlar tayyorlashni zamon talablari darajasiga ko'tarish masalasiga jiddiy e'tibor qaratila boshlandi.

Bu borada mazkur Bitiruv malakviy ishi ham o'ziga xos o'ringa ega. Bitiruv malakviy ishida mustaqil taraqqiyotning dastlabki 20 yillida respublikamizda ta'lim sohasida olib borilgan keng ko'lamli islohatlar, islohat samarasi, ta'limning bu modeli "o'zbek modeli" deb jahon hamjamiyati tomonidan e'tirof etilishi kabi masalalar tahlil qilinadi.

Tarix fakul'teti bitiruvchisi Sharopov Sheralining O'zbekistonda ta'lim tizimidagi islohatlar (Navoiy viloyati misolida) nomli bitiruv malakaviy ishi kirish, ikki bob, xulosa va adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va muhimligi, o'rganish darajasi yoritilgan.

Prezidentimiz Islom Karimov hali davlatimiz mustaqilligni qo'lga kiritmagan kezlardayoq o'z nutqida "Fanga iste'dodli yoshlarning kirib kelishini ta'minlash uchun kompleks tadbirlar turkumini amalga oshirish zarur. Bu borada oliy maktabning, hatto o'rta ta'lim maktablarining faoliyatini tubdan qayta qurish kerak..." degan edi. Mustaqilligimiz me'mori o'sha vaqtlardanoq amaldagi sobiq sho'rolar ta'lim tizimi talabga mutlaqo javob bermayotgani, respublikamiz dadil oyoqqa turib olmog'i uchun unga malakali kadrlar va bunday kadrlarni tayyorlashni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan dastur zarurligini ko'p bor ta'kidlar edi. O'zbekiston ta'lim tizimining rivojlanishi va takomillashuvining eng muhim yo'nalishlari deb nomlangan birinchi bobda Yurtboshimiz Islom Karimovning ta'lim sohasini isloh qilish to'g'risidagi g'oyalari va bu g'oyalarni amaliyotga tatbiq qilish jarayonlari, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi va ta'lim islohatlarining takomillashuvi kabi masalalar o'rganilgan.

Ikkinchi bobda Tarix fakul'teti bitiruvchisi Sharopov Sheralining mustaqillik yillarida butun Respublikamizda bo'lganidek Navoiy viloyati ta'lim tizimida olib borilgan keng ko'lamli islohatlarni o'rganishga qaratadi. Shuningdek ta'lim va fan sohasidagi xalqaro hamkorlik masalalari atroflicha o'rganishga harakat qilingan.

Bitiruv malakaviy ishi O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligining bitiruv malakaviy ishlarini yozish bo'yicha "Nizom"i talablari darajasida yozilgan deb hisoblayman va ishni himoyaga tavsiya etaman

Imiy rahbar: katta o'qituvchi U.Narzullayev

**Navoiy davlat pedagogika instituti Tarix fakul'teti tarix o'qitish
metodikasi yo'nalishi talabasi Sharopov Sheralining "O'zbekistonda ta'lim
tizimidagi islohatlar" (Navoiy viloyati misolida) mavzusidagi bitiruv
malakaviy ishi ishiga**

T A Q R I Z

Navoiy davlat pedagogika instituti Tarix fakul'teti tarix o'qitish metodikasi yo'nalishi talabasi Sharopov Sheralining O'zbekistonda ta'lim tizimidagi islohatlar (Navoiy viloyati misolida) mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi o'zining dolzarbligi bilan ajralib turadi. Zero ta'lim tarbiya masalasi har bir inson, har bir jamiyat va davlat hayotida muhim ahamiyat kasb etgan.

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va muhimligi, o'rganish darajasi yoritilgan. O'zbekiston ta'lim tizimining rivojlanishi va takomillashuvining eng muhim yo'nalishlari deb nomlangan birinchi bobda Yurtboshimiz Islom

Karimovning ta'lim sohasini isloh qilish to'g'risidagi g'oyalari va bu g'oyalarni amaliyotga tadbiq qilish jarayonlari, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi va ta'lim islohatlarining takomillashuvi kabi masalalar o'rganilgan.

Bitiruv malakaviy ishining ikkinchi bobi Mustaqillik yillarida Navoiy viloyatida ta'lim tizimidagi islohotlar deb nomlanib, ushbu bobda viloyatimizda ta'lim sohasida olib borilayotgan amaliy ishlar aniq faktlar asosida yoritib berilgan. Ushbu bobning uchinchi rejasi joriy yilda poytaxtimizda bo'lib o'tgan xalqaro konferensiyaga bag'ishlangan bo'lib, mamlakatimiz ta'lim tizimining jahon hamjamiyatida tutgan o'rni alohida ekanligi ko'rsatib o'tilgan.

Bitiruv malakaviy ishi O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligining bitiruv malakaviy ishlarini yozish bo'yicha "Nizom"i talablari darajasida yozilgan deb hisoblayman va ishni himoyaga tavsiya etaman.

“Umumiy tarix” kafedrasi kata oqituvchisi:

F.Shirinova